O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

"TASDIQLAYMAN"
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_________ dots. S.U.Xodjaniyazov
"28" avgust 2020-yil

# ADABIYOTSHUNOSLIKDA ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI

## FANIDAN

## O‘QUV- USLUBIY MAJMUA

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 | - Gumanitar soha |
| **Ta’lim sohasi:** | 120000 | - Gumanitar fanlar |
| **Mutaxassislik** | 5A120101 | - Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) |

**Urganch - 2020**

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2020 yil 29 avgustdagi №MD-5A120101 raqam bilan ro'yxatga olingan namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** __________ **S.Kurbanova**
UrDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchi:** __________ **B.Raximova**
UrDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Urganch davlat universiteti Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va ishlatishga tavsiya etilgan («28» avgust 2020-yildagi №__-sonli bayonnoma).

## MUNDARIJA:

1. **O`QUV MATERIALLAR**............................................................ 4-78-b.
2. **MUSTAQIL TA`LIM MAVZULARI VA TOPSHIRIQLARI**.... 79-b.
3. **GLOSSARIY** ........................................................................... 80-85-b.
4. **ILOVALAR** .............................................................................. 86-b.

– fan dasturi;
– ishchi fan dasturi;
– tarqatma materiallar;
– testlar;
– ishchi fan dasturiga muvofiq baholash mezonlarini qo`llash bo`yicha uslubiy ko`rsatmalar;
– O`UMning elektron varianti.

# I. O‘QUV MATERIALLARI

## 1.1. Ma`ruza matnlari

### 1-mavzu: Adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti

### 1.1. Ma’ruza mashgulotining ta’lim texnologiyasi modeli

| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. “Metodologiya” istilohi va uning mohiyati.<br>2. “Metodologiya”ning lug`aviy va istilohiy ma`nosi.<br>3. Ilmiy tafakkur tiplari. |
| **Ma’ruza mashg`ulotining ta’limiy maqsadi**:<br><br>**Ma’ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali magistrlarga “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” fanining predmeti va mazmuni, “metodologiya” istilohi va uning mohiyati, “metodologiya”, “metod”, “metodika” istilohlarining ma`no-mazmun jihatidan farqlari haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o`rganish orqali talabalarda fanning predmeti va mazmuni haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Adabiyotshunoslik metodologiya-sining fan sifatidagi asosiy mohiyatini ochib berish.<br>“Adabiyotshunoslik metodologiyasi” fanining maqsad va vazifalari bilan talabalarni tanishtirish;<br>“Metodologiya”, “metod”, “metodika” istilohlarining ma`no-mazmun jihati-dan farqlarini tushuntirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar adabiyotshunoslik metodo-logiyasining fan sifatidagi asosiy mohiyatini bilib oladilar.<br>“Adabiyotshunoslik metodologiyasi” fanining maqsad va vazifalari bilan tanishadilar;<br>Talabalar “Metodologiya”, “metod”, “metodika” istilohlarining ma`no-mazmun jihatidan farqlarini bilib oladilar. |

| | |
|---|---|
| **Ta'lim berish usullari** | Ko`rgazmali ma'ruza, Klaster |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

## 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.** 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.) 1.2. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar.<br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.** Asosiy bosqich ( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br>**2.2.** Mavzu rejasining birinchi, ikkinchi punkti bo`yicha ma'ruza qiladi.<br>**2.3.** Ma'ruza bo`yicha «Klaster" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi topshiriq beriladi: "Adabiyotshunoslik metodologiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi". | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar.<br>**2.2**. Mavzu rejasi-ning birinchi va ikkinchi punkti bo`yicha ma'ruzani tinglab, yozib boradi-lar.<br>**2.3.** Ma'ruzani ting-lab, yozib oladilar, topshiriqni bajaradi-lar. |

| | | |
|---|---|---|
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e'lon qiladi.<br>**3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e'lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Savollarga javob beradilar va baho-larini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1. "Metodologiya" istilohi va uning mohiyati.
2. "Metodologiya"ning lug`aviy va istilohiy ma`nosi.
3. Ilmiy tafakkur tiplari.

**Tayanch so`z va iboralar:** adabiyotshunoslik, adabiy jarayon, yondashuv usullari, metod, ilmiy bilish, deduksiya, induksiya, sintez, tamoyil.

Ma'lumki, adabiyotshunoslik sotsial-ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Adabiyotshunoslikning obyekti o`tmishda yaratilgan yoki ayni kunlarda yozilayotgan badiiy asarlardir. Adabiyotshunoslik o`rganish obyekti jihatidan «Adabiyot tarixi», «Adabiyot nazariyasi», «Adabiy tanqid» hamda «Adabiyotshunoslik metodologiyasi» kabi tarkibiy qismlarga bo`linadi.

**Adabiyot tarixi** bevosita o`tmishda yaratilgan badiiy asarlarni tadqiqi va tabdili bilan shug`ullanadi. Badiiy asarning muayyan millat yoki umuman, insoniyat madaniyati tarixida tutgan o`rnini belgilaydi.

**Adabiyot nazariyasi** badiiy adabiyotning o`ziga xos xususiyatlari, tur va janrlari, badiiy asarning ichki qonuniyatlari hamda tarkibi, shuningdek, ijod jarayonidagi qonuniyatlarni o`rganadi. Adabiyot nazariyasi zinhor adabiyotshunoslikning boshqa tarkibiy qismlaridan alohida yashab bilmaydi.

**Adabiy tanqid** adabiy jarayon bilan shug`ullanadi. Ayni paytda yozilayotgan asarlarga baho beradi. Adabiy-tarixiy jarayonda kechayotgan hodisalarni tahlil etadi.

**Adabiyotshunoslik metodologiyasi** esa o`tmish va hozirgi zamon adabiyotini o`rganishning tamoyillari va usullari ustida bahs yuritadi.

**«Metodologiya»** tushunchasiga mutaxassislar: «1) biron fanga tatbiq etiladigan tadqiqot usulining majmui; 2) ilmiy bilish va dunyoni o`zgartish metodi haqidagi fan» tarzida izoh beradilar. Mazkur izohning ikkinchi qismi, albatta, juda keng va ayni choqda, bevosita falsafa fani bilan ham bog`liq. Faylasuflar olamni bilish mumkinmi yoki yo`qmi, uni qaysi usul va qonuniyatlarga asoslanib bilish mumkin, degan masalalar ustida bahs yuritganlar. Aynan shu masala bahsi sababidan idealizm va materializm oqimlariga bo`linadilar. Zotan bilishni ilohiyotga bog`laganlarga idealistlar, bevosita jamiyat va tabiat qonuniyatlariga bog`laganlarga materialistlar sifatida qaralgan. Biz uchun yuqoridagi izohning birinchi qismi muhim. «Adabiyotshunoslik metodologiyasi» xususida fikr yuritar ekanmiz, aynan adabiyotshunoslik fanidagi tadqiqot metodlarining jamligi ustida to`xtalish lozim bo`ladi. **«Metodologiya»** so`zining o`zagini **«metod»** tashkil etadi. Ilm-fan olamida «metod» so`zi juda keng qo`llanadi. Shu bois uning lug`aviy hamda istilohiy ma'nolarini bilish joizdir. ***«Metod»*** grekcha **«meta»-**keyin, so`ng, **«hodos»-**yo`l degan ikki so`z birikmasidan vujudga kelgan. Shunday qilib grekcha «methodos» degan qo`shma so`zning lug`aviy ma'nosi «biron narsaga borish yo`li» demakdir. Istilohiy jihatdan esa mazkur so`z-atama «eng umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat» degan ma'noni bildiradi. ***Metod*** – bilish vositasi, o`rganilayotgan obyektni tafakkurda qayta hosil qilish usulidir. Metod muayyan fan sohasining nazariyasi bilan, falsafadagi «bilish», «ilmiy bilish» tushunchalari bilan chambarchas bog`liqdir. Ma'lum bir fan sohasidagi hodisani bilish jarayonida ilmiy tafakkurning **induksiya** (lat. Inductio «ayrimalikdan umumiylikka», xulosa chiqarish tiplaridan biri), **deduksiya** (lat. Deductio- «xulosa chiqarish», bir yoki bir necha asoslarga ko`ra xulosa chiqariladi), **analiz** va **sintez** (grek. Analysis-«ajratish» va synthesis - «birlashtirish», butunni tarkibiy qismga fikran yoki amaliy ajratish hamda qismlarni qayta birlashtirish), analogiya (grek. Analogiya «muvofiqlik», «o`xshashlik» aynan bir xil bo`lmagan obyektlar o`rtasidagi ba'zi tomonlar, sifatlar

va munosabatlardagi o`xshashlikni aniqlash), taqqoslash, eksperiment, kuzatish kabi umumiy prinsiplari ishlab chiqilgan. O`tgan asr falsafasida dialektik materializm bilishning eng umumiy metodi hisoblanar edi. Bu dialektik materializm metodologiyasining asosini jamiyat va tabiatning eng umumiy qonuniyatlari tashkil etar edi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o`tgan asrda barcha ijtimoiy fan sohalari uchun mazkur dialektik materializm ilmiy bilishning asosiy metodi va metodologiyasi vazifasini o`tadi. Fan olamida mavjud bo`lgan boshqa metodlar deyarlik inkor etilgan yoki tanqid ostiga olindi. Holbuki, ilmiy bilishda, ilmiy haqiqatni yuzaga chiqarishda dunyo ilm-fanida mavjud bo`lgan boshqa yo`l-yo`riqlardan ham xabardor bo`lish foydalidir.

Aslida haqiqatni bilishning yo`llari ko`p. Inson zoti aniq bir haqiqatlarni turli yo`llaridan borib ham aniqlashi, kashf etishi mumkin. Umumiy qoidalarni o`zgarmas tarzda qabul qilmaslikni, inson tafakkur egasi ekanini ta`kidlagan faylasuf L.Shestov e`tiroficha, "Истина столько, сколько людей на свете". Olim har bir insonning o`z haqiqati borligi va shunday bo`lishiga da`vat etadi.

**Nazorat savollari:**

1. "Metodologiya" istilohi va uning mohiyatini tushuntirib bering.
2. "Metodologiya", "metod", "metodika" istilohlarining o`zaro farqini tushuntiring.
3. Induksiya nima?
4. Deduksiya nima?
5. Analiz va sintez tushunchalariga ta`rif bering.

**ADABIYOTLAR:**


1. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т., 2000.
3. Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. – Л., 1969.

4. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
5. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.

## 2-mavzu: Adabiyotshunoslik metodlari tasnifi

### 1.1. Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti.<br>2. Metodologiya mohiyati.<br>3. Metodologiya – metodlar haqidagi fan.<br>4. Metodlar tasnifi. |
| **Ma'ruza mashg`ulotining ta'limiy maqsadi**:<br><br>**Ma'ruza mashg`ulotining rivojlantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, uning ob`yekti badiiy asar, ijodkor, nazariy asarlar, adabiyot tarixiga oid tadqiqotlar, adabiy-tanqidiy asarlar ekanligi; adabiyotshunoslik metodlari mazkur fanning tarkibiy qismi sifatida, adabiyotshunoslik maktablarini ham shu fan doirasida o`rganish lozimligi, adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti, adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasining o`zaro aloqadorligi, adabiyotshunoslik metodologiyasidagi muhim faktorlar, badiiy asarga yondashuv usullari haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o`rganish orqali talabalarda adabiyotshunoslik metodologiyasi va |

| | |
|---|---|
| | adabiyot nazariyasi fanlarining o`zaro aloqadorligi, badiiy asarga yondashuv usullari haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| | |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasining o`zaro aloqadorligi masalasining mohiyatini ochib berish.<br>Y.Borevning badiiy asarga yondashuv usullari tasnifini tushuntirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasining o`zaro aloqadorligi haqida bilib oladilar.<br>Y.Borevning badiiy asarga yondashuv usullari tasnifi haqida ma`lumot oladilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | BBB, ko`rgazmali ma'ruza, aqliy hujum metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

## 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.**<br>1.1. O`quv | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va |

| | | |
|---|---|---|
| hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.)<br>1.2. Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br><br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | rejalarini yozib oladilar.<br><br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich. Asosiy bosqich ( 50 daqiqa)** | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br>**2.2.** O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab magistrlarga BBB jadvali taklif etiladi va uning **Bilaman, Bilishni xohlayman** grafalari to`ldiriladi. Jadvalning ikkita grafasi to`ldirilgandan keyin mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma'ruza qiladi.<br>**2.3.** Talabalarning o`tilgan mavzuga tegishli bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, savollar beradi. | **2.1.** Adabiyotlar ro`y-xatini yozib oladilar.<br>**2.2**. Mavzu bo`yicha dastlabki tushuncha-larni ifodalovchi ma`lumotlarni BBB jadvaliga tushiradilar. Ma`ruzani tinglab, yozib boradilar.<br>**2.3.** Savollarga javob beradilar. |
| **3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)** | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldirishni topshiradi. Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br><br>**3.3.** Talabalarning reyting ballarini e'lon qiladi va uyga vazifani topshiradi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldiradilar. Savollar beradilar, umumiy xulosalarni yozib oladilar.<br>**3.3.** Topshiriqni yozib oladilar. |

## Reja:

1. Adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti.
2. Metodologiya mohiyati.
3. Metodologiya – metodlar haqidagi fan.

4. Metodlar tasnifi.

**Tayanch so`z va iboralar:** Adabiyotshunoslik metodologiyasi, adabiyot nazariyasi, badiiy ijod qonuniyatlari va kategoriyalari, muammoga xronologik yondashish, badiiy matn,badiiy asarga yondashuv.

Adabiyotshunoslikda metodologiya bo`lishi mumkinmi? Fanning qaysidir tarmog`ining metodologiyasi xususida gapirish shartmi? Metodologiya tushunchasi faqatgina borliqni falsafiy bilishga, yanada aniqrog`i dialektik materializmning o`zigagina taalluqli emasmi? O`tgan asrda adabiyotshunoslar orasida shunday savollar maydonga qo`yilgan va ularga turli javoblar berilgan. Maxsus bir fan uchun alohida olingan metodologiya yo`q, u fanlar haqida gap ketganda muayyan metodlar borasida fikrlash ma’quldir, degan qarashlar ham bo`lgan. Qaysi bir olim aynan shunday, ya’ni metodologiya tushunchasi faqatgina falsafiy-mantiqiy mohiyat kasb etadi, muayyan fanga doir metodologiya ustida so`zlash ortiqchadir, degan fikrni aytadi.[1] Ko`pchilik olimlar muayyan fan sohasida uchun alohida olingan metodlar majmuasiga aynan o`sha fan metodologiyasi tarzida qaraydi. Bunda maxsus fan sohasiga doir metodlar ilmiy-falsafiy bilish prinsiplari fonida olinadi. O`tmishda adabiyotshunoslik metodologiyasiga ham shu nuqtai nazardan qaraldi. Adabiyotshunoslik metodologiyasining umumiy ilmiy metodologiya (dialektik materializm) bilan aloqasiga asosiy o`ringa chiqdi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti xususida bahs borar ekan, uni aynan adabiyot nazariyasi bilan bir xil ekanini da’vo qilganlar ham bo`ldi. Aslida adabiyotshunoslik metodologiyasi bilan adabiyot nazariyasi orasida farq bor. Buni anglash lozim. Zotan adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslik metodologiyasini qamrab ola bilmaydi. Garchi o`zaro mustahkam bog`lanish bo`lsa-da, ularga nazariy adabiyotshunoslikning ikki aspekti sifatida qarash kerak.

Yuqorida aytib o`tilgandek, adabiyot nazariyasi badiiy ijodning qonuniyat va kategoriyalari bilan shug`ullanadi. Adabiyotshunoslik metodologiyasi esa o`sha

---

[1] Bushmin A.S. Metodologicheskiye voprosi literaturovedcheskix issledovaniy. –L.: «Nauka», 1969, str 15.

qonuniyat va kategoriyalarni boshqargan holda ular asosidagi ilmiy tadqiqot usulining aniq bir tarixiy-adabiy jarayondagi tamoyillarini belgilaydi.Olimlarning qarashlarida mazkur ikki tarmoqni ajratish, ularning farqli jihatlarini ko`rsatish uchun dunyo adabiyotshunoslarining mulohazalariga murojaat etish bor. Jumladan, A.S.Bushman nemis olimi M.Verli fikrlariga tayangan holda umumiy adabiyotshunoslik tushunchasini qo`llash joizligini aytadi. Shunda adabiyotshunoslikning nazariy jihatini - adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik nazariyasi (metodologiyasi) tarzida ajratishga imkon tug`iladi, degan fikrni ilgari suradi.[2]

Adabiyotshunoslik nazariyasi - metodologiyasini muayyan bir adabiy-ilmiy muammoning qanday hal etilishi misolida adabiyot nazariyasidan yaxshigina farqlab olish mumkin. Ma'lumki, adabiyot tarixi ham adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sanaladi. Ammo o`z vaqtida adabiyot tarixi fani nima bilan shug`ullanmog`i kerak? Badiiy asarlar tarixi bilanmi? Adabiy qarashlar tarixi bilanmi? Ijodkorning tarjimai holi tarixi bilanmi? Adabiy shakl va mahorat tarixi bilanmi? Adabiy oqimlar tarixi bilanmi? degan bir qator savollar ko`ndalang bo`lgan. To`g`risi, adabiyot tarixi bularning hammasi bilan shug`ullanmog`i kerak. Biroq bu muammolarning qay biri muhim, qanday ketma-ketlikda tadqiq etish lozim, qaysi biri birinchi yoki ikkinchi darajali? Bu savollarga, albatta, badiiy adabiyotning nisbatan ichki dunyosi bilan mashg`ul bo`luvchi adabiyot nazariyasi javob bera bilmaydi. Aynan shu o`rinda adabiyotshunoslik metodologiyasi ish beradi, shu o`rinda metodologiya ishlaydi. Bunda adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslik metodi va metodologiyasining yordami - vositasida o`zining obyektiga to`g`ri yo`nalish oladi. Adabiyotshunoslikning bu ikki ichki tarkibiy qismlarining o`zaro mustahkam aloqadorligini shundan ham bilsa bo`ladi. Adabiyotshunoslik metodologiyasi umumiy falsafiy metodologiya-dialektik materializmdan (garchi uning qamrovida ish ko`rsa ham) o`z spetsifikasiga, spetsifik metodiga ko`ra ham farqlanadi. Chunki adabiyotshunoslik tarixida badiiy asarga filologik, estetik, formal, biografik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy,

---

[2] O`sha asar. 20-bet.

sotsiologik kabi qator yondashuv usullari ishlab chiqilgan. Shunga asoslanib tadqiqotlar olib borilgan. Hozirgi kunda esa bu yondashuv usullari (metodlar)ning soni, salmog`i yanada ortdi. O`rni kelganda aytib o`tish kerakki, dunyo adabiyotshunosligida psixoanalistik, struktural, ekzistentsial, lingvopoetik, fenemologik kabi bir qator metodlar mavjud. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu metodlardan birontasini ortiqcha bo`rttirish (vulgarlashtirish) yoki yaqin o`tmishda bo`lganidek «burjua adabiyotshunoslarining metodlari» sifatida asossiz tanqid etish o`rinsizdir. Har bir metodning o`z nazariyotchisi, o`z tarixi, o`z tadqiqot usuli, o`z muxlislari va ayniqsa barchaga baravar bo`lgan obyekti borligini esdan chiqarmaslik lozim. Metodologiya olamni falsafiy bilish, inson dunyoqarashi bilan bog`liq, metod esa obyekt ustida ishlash jarayoni, qo`polroq qilib aytganda, texnik jihat bilan bog`liq jarayondir. Baribir, adabiyotshunoslik metodologiyasi deganda metodlar, ilmiy usullar, yondashuvlar, manbani texnik jihatdan uyushtirish va talqin etish yo`llari tushuniladi. Metodlar fan sohasidagi shunday bir qurilmaki, undan turli metodologik yo`nalishdagi olimlar o`z maqsadlariga etishlari uchun o`z xohishlaricha foydalanishlari mumkin. Metodologiya tadqiqotchiga yo`nalish beradi. Ilmiy tadqiqotning qanday metod asosida bajarishga orientatsiya beradi. Metodlar nisbatan neytral bo`lib qolishi mumkin. Ya’ni ilmiy bilishdagi muayyan metod ikki xil dunyoqarashli, ikki xil metodologiya bilan qurollangan tadqiqotchida nisbatan neytral holicha qolaveradi. Metodlar –shunday texnik uskunaki, har bir tadqiqotchi undan o`z maqsadiga erishmoq uchun o`zicha foydalanadi.

Har qanday adabiyotshunoslikka oid tadqiqotda ustuvor va individual metodlarni farqlay olish joiz. Zotan ular aniq ilmiy vazifa qarshisida o`zlarining o`rinlarini boshqalariga almashtirishlari ham mumkin. Ustuvor (generalizuyushiy) metod asosan tarixiy-adabiy jarayon tadqiqida qo`llanilsa, nisbatan individual metod ijodkorning san’atkorligi va uslubini tekshishga joriy qilinadi[3].

Y.B.Borev metod tushunchasiga fikrlash usuli (sposob mishleniye), metodologiya tushunchasiga metod nazariyasi (teoriya metoda), metodika

[3] Bushmin A.S. Metodologicheskiye voprosi literaturovedcheskix issledovaniy. –L.: «Nauka», 1969, 69-bet.

tushunchasiga metodning xususiy priyomlari sistemasi-tizimi tarzida qaraydi. Metodologik jihatdan shu nazariya mahsuldorki, uning qurilmasi-konstruksiyasida qo`llanilayotgan nazariya bilan kuzatilayotgan obyekt orasida simmetrik holat bo`lishi kerak. Metod shu simmetrik asosni tashkil etadi. Bunda metod fan va voqelik, tahlil va fakt, nazariya va amaliyot, konsepsiya va eksprimental ma'lumotlar oralig`ini egallaydi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasida quyidagi faktorlar muhim sanaladi.

1. Avvalo, badiiy asar bo`lishi lozim. Adabiyotshunoslik metodi asosida adabiy jarayon va uning qonuniyatlari yoki badiiy asar va uning xususiyatlarini taqqoslanadi.

2. Adabiyotshunoslik metodologiyasi zamonaviy adabiyot tajribasiga tayanadi. Adabiyotshunoslik metodologiyasi uchun badiiy kashfiyotlar muhim rol o`ynaydi. Adabiyotshunoslik metodologiyasining ichki yondashuv va tahlil usullari badiiy kashfiyotlar evaziga kengayadi.

3. Metodologiyada muayyan dunyoqarash ustuvor bo`ladi. Shu dunyoqarash orqali obyektga qaraladi.

4. Tarixiylik prinsipi ham metodologiya uchun muhimidir.

5. Adabiyotshunoslik metodologiyasi boshqa fan sohalarining yutuqlariga suyanadi. Sotsiologiya bilan aloqasi bor. Matn ritmikasini o`rganishda matematika fani bilan aloqasi bor. Semiotik analizda lingvistika yordam beradi.[4] Metodologiya uchun «nima uchun?», «nima?» va «qanday?» degan muhim savollar bor. Masalan, adabiy-tanqidiy tahlilda adabiy manba, badiiy matn nima uchun, nima maqsadda tekshiriladi? Bu savolga javob kerak. Tadqiqotchi yozuvchi va voqelikni tekshiradimi, obyektning qiymatini aniqlaydimi, muallif san'atiga baho beradimi? Bu turdagi masalalar metodologik jihatdan tahlilning nima uchun degan qismida yotadi. Adabiy-tanqidiy tahlilda aynan nima tadqiq etiladi? Shakl, mazmun, uslub, g`oya, til, badiiy konsepsiya, janr, asarning yaratilish tarixi, avtor ruhiyati va badiiy psixologizm, traditsiya va novatorlik - nimani tadqiq etishi kerak? Bu ikki masala metodologik jihatdan oydinlashtirilgandan keyin uni «qanday tadqiq

[4] Borev Y. Iskustvo interpretatsii i otsenki. -M., 1981, str. 36-37.

etadi?» degan savol tabiiy shu yuqoridagi ikki holat javobidan kelib chiqadi.

Zotan, badiiy matndagi 1) ko`p aspektli – biryo`la bir necha jihat tekshirilishi yoki 2) uning bitta qirrasi tekshirilishi mumkin. Buni tadqiqotchining o`zi belgilab oladi. Metodologiya ham, metod ham shu o`rinda o`zining qiymatini namoyon etadi. Adabiyotshunoslik ilmi muayyan adabiy hodisaga 1) xronologik 2) muammoli; 3) janr xususiyatiga ko`ra yondashishi mumkin. Adabiyotshunoslik ilmining ikki katta tarkibiy qismi - adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasiga e'tibor berilganda ham ular ma'lum bir ichki tartibga ega ekani ko`rinadi. Masalan, adabiyot tarixi eng avvalo, ikki tamoyil asosida-xronologik (qadimgi, o`rta asrlar, yangi tipdagi davrlashtirish) va zamon-davr-vaqt (ma'lum bir mamlakat adabiyoti tarixi, ma'lum bir region adabiyoti tarixi, ma'lum bir etnik jihatdan yaqin bo`lgan xalqlar adabiyoti tarixi, dunyo adabiyoti tarixi) nuqtai nazaridan metodologik asosda farqlanadi. Bu har ikki farqni qamrab olgan adabiyot tarixi ichkarisida ma'lum bir masalalar yuzasidan, masalan adabiy oqimlar-yo`nalishlar tarixini o`rganish (klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, realizm, modernizm), alohida olingan janrlar tarixini o`rganish (epos, roman, drama, lirika), yirik adiblar ijodini o`rganish (shekspirshunoslik, navoiyshunoslik, qodiriyshunoslik) yuzasidan ham tarmoqlanishi mumkin. Rus adabiyotshunosligida badiiy asarga yondashuv usullarini Y.Borev quyidagi atamalar asosida tasniflab bergan:

1.Sotsiologik yondashuv;

2.Gneseologik yondashuv;

3.Tarixiy-madaniy yondashuv;

4.Qiyosiy-tarixiy yondashuv;

5.Biografik yondashuv;

6.Ijodiy-genetik yondashuv;

7.Ontologik yondashuv.

Y. Borev mazkur mavzuga oid kitobida bu yondashuvlarga xos xususiyatlarni batafsil yoritgan.[5]

---

[5] Borev Y. Iskusstvo interpretatsii i otsenki. -M., 1981. Str. 47-66.

Adabiyotshunos olim Abdug`afur Rasulov filolog-magistrlar uchun yozgan «Badiiy asarga yondashuv asoslari» nomli o`quv qo`llanmasida asosan badiiy asarga «tarixiy-biografik» hamda «tarixiy-funksional» yondashuvni o`zbek adabiyoti manbalari asosida yoritib beradi.[6]

Shuningdek, dunyo adabiyotshunosligida adabiyotshunoslikning bir qator metodlari farqlanadiki, biz imkoniyatimiz doirasida ulardan ayrimlariga to`xtalib o`tamiz.

**Nazorat savollari:**

1. Adabiyotshunoslik metodologiyasining obyekti nima?
2. Adabiyot nazariyasining obyekti nima?
3. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasi fanlarining o`zaro aloqadorligini tushuntiring.
4. Adabiyotshunoslik metodologiyasidagi muhim faktorlar haqida ma`lumot bering.
5. Badiiy asarga yondashuv usullari haqida Y.Borev va A.Rasulov qarashlari.

## ADABIYOTLAR:


1. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. – М., 1986.
2. Бореев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981.
3. Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. – Л., 1969.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
5. Верли М. Общее литературоведение. – М., 1957.
6. Гадамер Г. Истина и метод. – М., 1988.
7. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
8. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
9. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.


[6] Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. -T., 2003, 43-bet.

## 3-mavzu: Sotsiologik metodning o`ziga xos xususiyatlari

### 1.1. Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Sotsiologik metod tarixi xususida.<br>2. Sotsiologik metodning mohiyati.<br>3. O`zbek adabiyotshunosligida sotsiologik metod. |
| **Ma'ruza mashg`ulotining ta'limiy maqsadi**:<br><br>**Ma'ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga sotsiologik metodning mohiyati, sotsiologik metodda badiiy adabiyot bilan ijtimoiy hayot, badiiy voqelik bilan real hayotiy voqelikning tadqiq etilishi, G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, N.Chernishevskiylar faoliyatida sotsiologik metodning qo`llanilishi haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o`rganish orqali talabalarda sotsiologik metodning mohiyati va uning namoyandalari faoliyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Sotsiologik metodning asosiy mohiyatini ochib berish;<br>Sotsiologik metodning tadqiq usullari bilan talabalarni tanishtirish;<br>O`z faoliyatlarida sotsiologik metod-dan unumli foydalangan rus tanqidchilari faoliyatini tushuntirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar sotsiologik metodning asosiy mohiyatini bilib oladilar;<br>Talaba-magistrlar sotsiologik metod-ning tadqiq usullari bilan tanishadilar;<br>Talabalar rus olimlari ilmiy faoliyati bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | BBB jadvali, ko`rgazmali ma'ruza, munozara, aqliy hujum metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

## 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.** 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.) 1.2. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br><br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar.<br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.** Asosiy bosqich ( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br><br>**2.2.** O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab magistrlarga BBB jadvali taklif etiladi va uning **Bilaman, Bilishni xohlayman** grafalari to`ldiriladi. Mavzu rejasining birinchi, ikkinchi punkti bo`yicha ma'ruza qiladi.<br><br>**2.3.** Talabalarning o`tilgan mavzuga tegishli bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, savollar beradi. | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar.<br>**2.2**. BBB jadvalining 1-2-grafalarini to`ldiradilar. Mavzu rejasining birinchi va ikkinchi punkti bo`yicha ma'ruzani tinglab, yozib boradilar.<br><br>**2.3.** Ma'ruzani tinglab, yozib oladilar, savollarga javob beradilar. |
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldirishni topshiradi. Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e'lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Magistrlar BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldiradilar. |

| | | |
|---|---|---|
| | **3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e'lon qiladi. | Savollarga javob beradilar va baho-larini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1. Sotsiologik metod tarixi xususida.
2. Sotsiologik metodning mohiyati.
3. O`zbek adabiyotshunosligida sotsiologik metod.

**Tayanch so`z va iboralar:** Sotsiologik metod, ijtimoiy-sotsial voqelik, sotsiologiya, vulgar sotsiologizm, badiiy asar, adabiy davr.

Sotsiologik metod adabiyotshunoslikda juda keng qo`llanadigan ilmiy tadqiqot usullaridan biridir. Sotsiologik metod negizida adabiyotni ijtimoiy-sotsial voqelikka bog`liq holda o`rganish prinsiplari yotadi. Adabiyotni bu metod vositasida tadqiq etishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar bilan bog`lanish hollari etakchi o`rinda turadi. Shu sababli adabiyotshunoslikda adabiyot va sotsiologiya tushunchalari juda ko`p ishlatiladi. Ikkinchi tomondan bu atama tor ma'noda adabiyotshunoslik va sotsiologiya fanlari sohasida badiiy adabiyotning jamiyatdagi funksiyasi tarzida ham qo`llanadi.

Badiiy adabiyot va umuman, san'atning jamiyat bilan o`zaro munosabatlari masalasi juda qadim zamonlardayoq o`rtaga tashlangan bo`lsa-da, adabiyotning ijtimoiy mohiyati va shu asosida o`rganish-tadqiq etish metodi XIX asr o`rtalariga kelib yuzaga chiqadi.

Dunyo adabiyotshunosligi tarixida «madaniy-tarixiy maktab» vakili sifatida qaraladigan fransuz olimi Ippolit Ten (1828-1893) sotsiologik metodning asoschilaridan biri hisoblanadi. I.Ten o`z qarashlarida pozitivist O.Konti ta'sirida bo`lgan. Bu olim sotsiologiyani konkret (emprik) fanlarga tatbiq etib, o`z metodini tabiiy fanlar metodikasiga anologik tarzda tuzadi. Biroq I.Tenning san'atga

qarashlari pozitiv xarakterda emas edi. San’at taraqqiyotini ijtimoiy holat bilan izohlashga - tushuntirishga intiladi. I.Ten o`z nazariy fikr-mulohazalari isboti uchun ingliz adabiyoti tarixiga, niderlandiyalik rassomlar ijodiga, qadimgi grek hamda italyan san’ati tarixiga murojaat etadi; mazkur obyektlarning paydo bo`lishi va taraqqiyot sabablarini ijtimoiy-tarixiy asoslarga bog`lab o`rganadi.

I.Tenning nazariy qarashlari nemis klassik falsafasi namoyandalari Gotfrid Iogann Gerder (1744-1803) hamda Georg Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831) ta’sirida shakllanadi. Xususan, Gegelning «Estetika» asari nafaqat madaniy-tarixiy maktab vakillari ijodida, balki o`zidan keyingi butun boshli faylasuf-adabiyotshunoslar avlodining shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etgan edi. Bu asarning bugun ham qiymati beqiyosdir.

Sotsiologik metod asoslari uchun tosh qo`yar ekan I.Ten san’atning eng asosiy predmeti jamiyat hayotida mavjud bo`lgan insonlarning xarakteridir, deya hisoblaydi. U o`z prinsiplarini «irq, muhit va davr-vaqt» («rasa, sreda i moment») tushunchalari vositasida izohlaydi. San’at asarini qaysidir irq-xalq-millatga mansubligini, ma’lum bir muhit va muayyan zamonda yaratilishini alohida ta’kidlaydi.

Badiiy adabiyotni sotsiologik nuqtai nazaridan tadqiq etish markscha sotsiologiya bilan ko`p jihatlardan bog`liq.

Ijtimoiy fan tarixidan o`rin olgan marksistik sotsiologiyaning metodologik asosini tarixiy materializm tashkil qiladi. K.Marks va F. Engelsning shogirdlari Frans Mering (1846-1919 nemis), fransuz sotsialisti Pol Lafarg (1842-1911), Rossiya muhitida esa Georgiy Valentinovich Plexanovlar (1856-1918) bu yo`nalish tariqqiyotida o`zlarining hissalarini qo`shganlar.

G.V.Plexanov «Karl Marks va Lev Tolstoy», «Yana Tolstoy to`g`risida», «Vissarion Grigoryevich Belinskiy», «Belinskiy, Chernishevskiy va Pisarev» nomli maqolalarida o`zining adabiyotga qarashlari qat’iy sotsialogik nuqtai nazaridan ekanini bayon etadi.

V.G.Belinskiy to`g`risida yozar ekan, o`sha tanqidchi adabiy hodisaga sotsiologik nuqtai nazardan emas, balki faqatgina publitsistik nuqtai nazaridan

qaraydi, deya bu xususiyatni kamchilik qilib ko`rsatadi. «Belinskiyning keyingi yillarda yozgan maqolalarida adabiy tanqidchiligimiz bajarish kerak bo`lgan qator rejalar xususida fikr yuritilganki, bu vazifalar faqatgina sotsiologik nuqtai nazarida mustahkam turib olgandagina bajarilish mumkin».[7]

Bu ko`chirmaning o`ziyoq Plexanovning mazkur metodga naqadar oshuftaligini ko`rsatadi.

Garchi hozirga kelib markscha-lenincha falsafa negizidan unib chiqqan markscha sotsiologik metod tanqidga uchrayotgan bo`lsa-da, uning muayyan tarixiy sharoitda etakchilik bo`lganini - u sun’iy yoki tabiiy bo`lishidan qat’i nazar - inkor etib bo`lmaydigan faktdir. Shu ma’noda sotsiologik metodning sovet davri xususida ham fikrlashish, ham muayyan ibratli xulosalar chiqarish mumkin.

Sir emaski, sovet adabiyotshunosligi sotsiologik metod bilan qurollanar ekan, K.Marks va F.Engelsning realizm haqidagi, umuman, adabiyot hamda madaniy meros to`g`risidagi qarashlariga tayandi. V.Leninning qator maqolalari, xususan, adabiyotning partiyaviyligi borasidagi, shuningdek, L.N.Tolstoy va A.I.Gertsen to`g`risidagi maqolalari adabiyotshunoslik uchun metodologik tayanch vazifasini o`tadi.

Anatoliy Vasilyevich Lunacharskiy (1875-1933) marksist o`laroq san’at, adabiyot sohasiga o`sha nazariy qarashlari olib kiradi. Badiiy adabiyot sohasida markscha-lenincha falsafani targ`ib-tashviq etdi. A.V.Lunacharskiyning «San’at haqida munozara» (1905), «Proletar adabiyoti haqida maktublar» (1914), «San’atda sinfiy kurash» (1929), «Lenin va adabiyotshunoslik» (1932) kabi qator asarlari fikrimizning isbotidir.

Badiiy adabiyotni jamiyat hayotiga, ba’zida iqtisodiy omillarga bog`lab qo`llash 20-30-yillar sovet adabiyotshunosligiga xos xususiyatdir. Yana ham aniqrog`i, bu davr adabiyotshunosligida markscha-lenincha falsafiy ta’limotni badiiy adabiyot tadqiqi uchun qo`llashda biryoqlamalik yuz beradi. Sinfiy kurash - tarixni harakatga keltiradigan kuchdir, degan ta’limot bilan qurollangan olimlar

---

[7] Plexanov G.V. Istorii v slove. -M., 1988. Str. 95.

badiiy adabiyotda mazmun masalasini siyqalashtirib, nisbatan jo`nlashtirdilar. Har qanday badiiy asarga, eng avvalo sinflar kurashi, sinflar o`rtasidagi shiddatli to`qnashuvlar nuqtai nazaridan yondashildi. XX asr adabiyotshunoslik tarixidagi bu hodisa «vulgar sotsiologizm» deb nomlanadi. «Vulgar» so`zi lotincha bo`lib, «sodda, oddiy» degan ma'noni bildiradi.

Xo`sh, vulgar sotsiologizmning o`zi nima? «Vulgar sotsiologizm - ijtimoiy hodisalarni siyqa talqin qilishdan iborat bo`lib, bunday talqin qilish tarixiy materialzmni buzadi, chunki bu ijtimoiy taraqqiyotning ayrim faktorlarini; texnikani, ishlab chiqarishni tashkil etish formalarini, ekonomikani, siyosatni, ideologiyani bir tomonlama bo`rttirib ko`rsatadi. Tor ma'noda-ideologiyaning sinfiy shart-sharoitga bog`liq ekanini siyqa tushunishdir». Bu tavsifda ham zamonning mafkuraviy nazari bor. Rus adabiy tanqidchiligi va estetikasida V.Shulyatikov, V.Pereverzev, V.Friche kabi olimlar vulgar sotsiologik qarashga ega edilar. Bularning biryoqlama adabiy nazariyalariga o`z vaqtida javob tarzida yozilgan asarlar maydonga keldi.[8] Bu adabiy hodisani tanqid qilganlar go`yo ularning markscha-lenincha ta'limoti adabiyot sohasiga noto`g`ri tatbiq etilganini so`zlash orqali adabiy-ilmiy muhitni sog`lomlashtirishga intildilar. Ammo badiiy adabiyotni sotsiologik metod asosida tadqiq etish sinfiylik, partiyaviylik, xalqchillikdangina iborat emas. To`g`rirog`i, adabiyotni ijtimoiy voqelik, jamiyat hayotiga aloqadorlikda tekshirishning birdan-bir to`g`ri yo`li markscha-lenincha falsafa vositachiligidir, degan qarash o`zini oqlamaydi. Buni keyingi yillar ilm-fanidagi, falsafa, estetika sohasidagi tub o`zgarishlar ko`rsatdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 30-yillar muhitida vulgar sotsiologik qarashlar o`zbek adabiyotshunosligida ham mavjud edi. Fikrimizcha, Aynning (Olim Sharafiddinov) «O`zbek shoiri Cho`lpon» (1927 yil 14 fevral, «qizil O`zbekiston» gazetasi) maqolasi va mazkur «cho`lponizm» bahslarida qatnashgan Usmonxonning «Munaqqidning munaqqidi» («Qizil O`zbekiston» gazetasi 1927 y) maqolalari, shuningdek S.Husaynning «O`tgan kunlar» hamda M.Buzruk

[8] Rozental M. Protiv vulgarnoy sotsiologii v literaturnoy teorii. -M.: «Xud. lit.», 1936.

Solihovning «Mehrobdan chayon» tanqidiga bag`ishlangan asarlari vulgar sotsiologik ruhda edi.

Otajon Hoshim esa o`sha 30-yillar muhitida mafkuraviy adabiyotshunoslikning bir qator manbalarini rus tilidan o`zbek tiliga tarjima qildi.

Sir emaski, o`zbek adabiyotshunoslarining katta bir avlodi rus adabiy tanqidchilari, badiiy adabiyotning sotsial vazifasiga asosiy urg`u bergan Vissarion Grigorevich Belinskiy (1811-1848), Nikolay Gavrilovich Chernishevskiy (1828-1889), Nikolay Aleksandrovich Dobrolyubovlar (1836-1861) maktabi tarbiyasini oldilar. Bu adabiyotshunos-munaqqidlarning bir qator asarlari o`zbek tiliga ham tarjima qilindi. Shu ma'noda o`zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixiga nazar tashlansa, aksariyat hollarda badiiy asarlar sotsiologik metod asosida tadqiq qilingani oydinlashadi. Biroq bu fikr o`zbek adabiyotshunoslari badiiy asarning estetik qirralariga, psixologizm yoki formal tomonlarga mutlaqo e'tibor bergan emas, degan mulohazani keltirib chiqarmasligi lozim. Zeroki, bu masalalar o`zbek adbiyotshunosligi va adabiy taqidchiligi tarixiga oid kitoblarda qaysidir darajada yoritildi.

Badiiy adabiyot mavjud ekan. Uni ijtimoiy nuqtai nazardan o`rganish jarayonlari, turmush tarziga, jamiyat hayotiga qiyoslash hollari ham mavjud bo`ladi.

## Nazorat savollari:

1. Sotsiologik metod mohiyatini tushuntirib bering.
2. I.Ten faoliyati to`g`risida nimalarni bilasiz?
3. G.Plexanov faoliyati to`g`risida gapiring.
4. "Vulgar sotsiologizm" deganda nimani tushunasiz?

## ADABIYOTLAR:


1. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. – М., 1986.
2. Бореев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981.

3. Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. – Л., 1969.
4. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993.
5. Верли М. Общее литературоведение. – М., 1957.
6. Гадамер Г. Истина и метод. – М., 1988.
7. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
8. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
9. Плеханов Г.В. Истории в слове. – М., 1988.
10. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.

## 4-mavzu: Formal metod

### 1.1. Ma’ruza mashgulotining ta’lim texnologiyasi modeli

| | |
|---|---|
| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Formal metodning tadqiqot tamoyillari.<br>2. Formal metod namoyandalari.<br>3. Metodning dunyo adabiyotshunos-ligida tutgan o`rni.<br>4. Badiiy san`atlar va formal metod xususida. |
| **Ma’ruza mashg`ulotining ta’limiy maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga adabiyotshunoslik metodologiyasiga metodlar yig`indisi sifatida qarashning mavjudligi, adabiyotshunoslik metodlari va rus formal metodi, uning asoschilari, namoyandalari, mohiyati, bunda badiiy adabiyotning shakliga, kompozitsion qurilishiga, lug`at tarkibiga ko`proq e`tibor berilishi to`g`risida tushuncha berish. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Mavzuni o`rganish orqali talabalarda adabiyotshunoslik metodlari va rus formal metodi, uning asoschilari, namoyandalari, mohiyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Adabiyotshunoslik metodlari haqida umumiy tushuncha berish;<br>Rus formal maktabi namoyandalari qarashlari bilan talabalarni tanishtirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar adabiyotshunoslik metodlari haqida bilib oladilar.<br>Rus formal maktabi namoyandalari qarashlari bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | Ko`rgazmali ma'ruza, FSMU texnologiyasi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

**1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.**<br>1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.)<br>1.2. Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br><br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar.<br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.**<br>Asosiy bosqich<br>( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br>**2.2.** Mavzu rejasi punktlari bo`yicha ma'ruza qiladi.<br>**2.3.** Ma'ruza bo`yicha "FSMU" | **2.1.** Adabiyotlar ro`y-xatini yozib oladilar.<br>**2.2.** Ma'ruzani ting-lab, yozib boradilar.<br>**2.3.** Topshiriqni baja- |

| | | |
|---|---|---|
| | texnologiyasidan foydalangan holda guruhlarga topshiriqlar beradi. Guruhlarda ishlashga yordam beradi. Qo`shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh topshiriqlarini vatman qog`ozlarga tushirib, taqdimotni o`tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. | radilar. |
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e'lon qiladi.<br>**3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e'lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Savollarga javob beradilar va baho-larini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1. Formal metodning tadqiqot tamoyillari.
2. Formal metod namoyandalari.
3. Metodning dunyo adabiyotshunosligida tutgan o`rni.
4. Badiiy san`atlar va formal metod xususida.

**Tayanch so`z va iboralar:** rus formalistlari, formalizm, formal maktab, OPOYAZ, MLK, shaklbozlik, lafziy san`atlar, so`z ijodkorligi.

60-70 yillarda G`arbiy Yevropa adabiyotshunosligida maydonga kelgan «yangi tanqid» strukturalizm oqimiga muayyan darajada ta'sirini o`tkazgan formal metod qaysidir ma'noda rus adabiyotshunoslari nomi bilan bog`liq.

Adabiyotshunoslik ilmida «Formalizm», «Formal maktab», «Formal metod» kabi atamalar bor. Ularning o`ziga yarasha tarixi, adabiy-ilmiy tamoyillari hamda adabiy siymolari mavjud.

20-yillar rus adabiyotshunosligida maktab holiga kelgan-«formal maktab» nomini olgan yo`nalish rus formal metodining bir ko`rinishi edi.

Bu yo`nalish tarkibiga OPOYAZ (Obshestvo izucheniya poeticheskogo yazika), MLK (Moskovskiy lingvisticheskiy krujok) kabi jamiiyat va to`garaklar kirar edi.

Adabiyotshunoslikdagi formal metod badiiy shaklga eng muhim nazariy-estetik kategoriya deb qaraydi. Badiiy adabiyotning eng asosiy xususiyati shaklda o`z ifodasini topadi, degan g`oyani ilgari suradi.

19 asr oxiri 20 asr boshlarida G`arbiy Yevropada san’atning boshqa turlariga munosabatda masalan, tasviriy san’at yoki har xil san’at turlarini qiyoslash (G. Vyolflin, O. Valtsel vakillari) yuzaga keldi.

Adabiyotshunoslikda «roman morfologiyasi», (V. Dibelius) «Tilga tegishli stilistika» (L. Shpittsler) kabi yo`nalishlarda ko`rinadi. G`arbda mazkur formal metodning metodik prinsiplarini «diqqat bilan o`qish» tashkil etar edi. Bunda badiyatga, adabiyotga taalluqli bo`lmagan tilning barcha komponentlariga mensimay-e’tiborsiz qaralgan. Bunda statistika birinchi planga chiqib ketadi va badiiy adabiyotni genetik holda evolyutsion nuqtai nazardan o`rganish ikkinchi darajaga tushib qoladi.

1910-1920 yillarda faoliyat ko`rsatgan rus formal maktabi san’atshunoslik konsepsiyasidan emas, balki lingvistik yo`nalishdan kelib chiqqan holda o`z prinsiplarini ishlab chiqdi.

Rus formalistlarida formaga yagona, birdan bir badiiy adabiyotni tadqiq etadigan, uning barcha xususiyatlarini ifodalaydigan jihat degan tushuncha vaqt o`tishi bilan nisbatan kengaydi. Nazariy va tarixiy poetikaga doir fikrlarida evolutsiya yuz berdi. «Mazmuniy shakl» («soderjatelnaya forma») tarzidagi birikmalar paydo bo`ldi.

Formal metod vakillari hamda tarafdorlari ilmiy faoliyatida bu konsepsiya o`zining aniq mahsulini berdi. Zotan, ular ijodida adabiyotshunoslik ilmida ilgari o`rganilmagan, tadqiq qilinmagan jihatlari bor edi. Ularning ishlari orasida nutq shakli va til (V.V.Vinogradov), qofiya, she’r o`lchovi va she’r qurilishi (V.M.Jirmunskiy), semantika bilan she’r konstruktsiyasining aloqasi (Tinyanov), sintaksis va poetik intonatsiya (B.M.Eyxenbaum), ohang-ritm va vazn (B.V.Tomashevskiy), futuralistlarning so`z ijodchiligi (G.O.Vigokur), ritm va

sintaksis (O.M.Brik), sujet tuzilishi (Shklovskiy), ertaklarning struktural tahlili (V.Y.Propp), poetik fonetika (E.D.Polivanov) kabi ilmiy masalalarning tadqiqotlarini uchratish mumkin. Ularning o`ziga xos uslubi bo`lib, oralarida ilmiy bahs-munozaralar ham yuzaga kelgan. Hatto bu formalistlar o`zlarining asarlarini bir-birlariga dastxat yozib, taqdim etganlarida ham o`zaro «muxolif» ekanlarini kinoyaviy tarzda bildirib o`tishni xush ko`rishgan.

Formal metod vakillari tomonidan 20-yillarda struktural poetika, informatsiya nazariyasi, belgilar nazariyasi kabi masalalar muhim hisoblangan bo`lsa, 20-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran badiiy adabiyotga adabiyot olamidagi tizim sifatida qarash, bora-bora shakl va mazmun birligini ifodalaydigan universal ilmiy metod holatiga keladi.

Formal maktab va formal metod marksistik adabiyotshunoslik tomonidan tanqidga uchradi. Shu bois adabiyotshunoslik lug`atlarida ham «formal maktab badiiy ijodni o`rganishda, asosan realizm va marksistik prinsiplariga qarshi edi», tarzida bu metod hamda uning namoyandalari asarlarining ojizliklari ta'kidlanar edi.

«Formal maktab vakillari ko`proq badiiy til, turli so`z o`yinlari, epitetlar, ko`chim, sintaktik shakllarni tadqiq etishga katta ahamiyat berdilar... Badiiy asar kompozitsiyasida esa, ular nutq parchalarining joylashishi, parallel hodisalar, sintaktik parallelizmlar hamda takrorlarni nazarda tutadilar». (N.Hotamov, B.Sarimsoqov «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati», -T., «O`qituvchi», 1983 y.). Bunga o`xshash fikrlardan formal metodning ahamiyatini, badiiy asarning shakliy jihatlarini tadqiq etishda muayyan darajada muvaffaqiyat qozonganini anglash qiyin emas.

Zotan, rus formal maktabi namoyandalari formal metod tarafdorlari, eng avvalo, badiiy adabiyotni siyosatning qo`g`irchog`iga aylantirishga, uni jo`nlashtirishga, sinfiylik, partiyaviylik singari qoliplarga solishga qarshi turdilar.

Adabiyotshunoslikdagi mazkur yo`nalish qaysi zamonda bo`lmasin, qanday tarzda tanqid etilmasin bari-bir ular badiiy adabiyotning asl mohiyatiga poetikaga,

uslubga, tilga asosiy diqqatni qaratib, badiiy shaklning immanent analiziga kirishgan edilar.

Ehtimol, formal metod tarafdorlari buni yagona to`g`ri metod tarzida baholab, bir oz subyektivizmga yo`l qo`ygan bo`lishlari mumkin. Ammo ular badiiy adabiyotni shakliy-struktural jihatdan talqin etishda muayyan xizmat etganlari tarixiy fakt. Buni birov inkor qilmaydi.

Sharq adabiyotshunosligi tarixida ham badiiy asarning shakliy qirralariga e'tibor berish, shaklga asoslangan adabiy namunalarni shu asosda talqin qilish holatlari mavjud albatta.

**Nazorat savollari:**

1. Adabiyotshunoslik metodlariga qisqacha izoh bering.
2. Rus formal maktabi qarashlarining vujudga kelishi haqida nimani bilasiz?
3. Formal maktab namoyandalari faoliyati haqida nimalarni bilasiz?

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Атоулло Ҳусайний. Бадое ус саное. – Т.: Фан, 1981.

2. Виноградов И. О формализме в литературоведение // Борьба за стиль. – М., 1937.

3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.

4. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.

5. Плеханов Г.В. Истории в слове. – М., 1988.

6. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.

## 5-mavzu: Struktural-analiz metodi

**1.2. Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli**

| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Strukturalizmning rivojlanish tarixi.<br>2. Metod asoschilari va vakillari.<br>3. Rolan Bart – strukturalist.<br>4. O`zbek adabiyotshunosligida struktural metod namunalari. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruza mashg`ulotining ta'limiy maqsadi**:<br><br><br><br><br><br><br><br>**Ma'ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga struktural-analiz metodining mohiyati, uning bosh prinsipi badiiy asarni yaxlit "tirik organizm" sifatida o`rganish ekanligi, struktural-analiz metodining asoschilaridan biri Klod Levi-Stross va R.Bart ekanligi haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o`rganish orqali talabalarda struktural-analiz metodining mohiyati va uning namoyandalari faoliyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Struktural-analiz metodining asosiy mohiyatini ochib berish;<br>Struktural-analiz metodining tadqiq usullari bilan talabalarni tanishtirish;<br>O`z faoliyatlarida struktural metoddan unumli foydalangan chet el tanqid-chilari faoliyatini tushuntirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar struktural-analiz metodining asosiy mohiyatini bilib oladilar;<br>Talaba-magistrlar struktural-analiz metodining tadqiq usullari bilan tanishadilar;<br>Talabalar chet el olimlari ilmiy faoliyati bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | BBB jadvali, ko`rgazmali ma'ruza, munozara, aqliy hujum metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

## 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.**<br>1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar. |

| | | |
|---|---|---|
| talabalar davomatini tekshirish (5 min.)<br>1.2. Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | **1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e’lon qiladi. | **1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.**<br>Asosiy bosqich<br>( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br>**2.2.** O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab magistrlarga BBB jadvali taklif etiladi va uning **Bilaman, Bilishni xohlayman** grafalari to`ldiriladi. Mavzu rejasi punktlari bo`yicha ma’ruza qiladi. | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar.<br>**2.2**. BBB jadvalining 1-2-grafalarini to`ldiradilar. Mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma’ruzani tinglab, yozib boradilar. |
| | **2.3.** Talabalarning o`tilgan mavzuga tegishli bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, savollar beradi. | **2.3.** Ma’ruzani tinglab, yozib oladilar, savollarga javob beradilar. |
| **3-bosqich.**<br>Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldirishni topshiradi. Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e’lon qiladi.<br>**3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e’lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Magistrlar BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldiradilar. Savollarga javob beradilar va baholarini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1. Strukturalizmning rivojlanish tarixi.
2. Metod asoschilari va vakillari.
3. Rolan Bart – strukturalist.

4. O`zbek adabiyotshunosligida struktural metod namunalari.

**Tayanch so`z va iboralar:** struktural poetika, asar va matn, binar, parallelizm, simmetriya, mikroanaliz.

Mohiyatiga ko`ra strukturalizm yangi soha emas. Uzoq tarix, boy adabiy merosga ega xalq borki, uning nafosatshunosligi, matnshunosligi taraqqiy etgan bo`ladi. A.Jomiy, A.Navoiy, Bobur singari san`atkorlar faqat badiiy asarlar emas, balki poetikaning turli muammolari haqida tadqiqotlar yaratganlar. A.Navoiy "Mezon ul avzon", "Muhokamatul lug`atayn" singari asarlarida so`z, misra, janrlar to`g`risida qimmatli fikrlar bildirgan. Hozir ham o`zini hurmat qilgan, badiiy ijodni muqaddas sanagan san`atkor badiiy til, struktura, so`zdan foydalanish mahorati, satr salmog`i, semiologiya singarilar haqida tadqiqot olib bormoqda. Ammo struktura, strukturalizm istilohi yuz yil muqaddam Fransiyada paydo bo`ldi. Struktura tarkibiy qismlararo aloqa va o`zaro moslashuvlardir. Strukturalizm – tilshunoslik, adabiyotshunoslikdagi yo`nalish, metodning mushtarak istilohi. XX asrning 10-yillaridan e`tiboran shakllana boshlagan strukturalizm metodini fransuzlar "yangi tanqid" deya boshladilar.

Fransuz strukturalizmi haqida gap borar ekan, avvalo, Ferdinant de Sossyur (1857-1913) nomi tilga olinadi. U struktural lingvistika asoschilaridan bo`lib, fanga sinxron va diaxron o`rganish metodlarini olib kirdi.

Strukturalizmning shakllanishi va rivojini Rossiyada paydo bo`lgan "Poetik tilni o`rganish jamiyati" faoliyati namoyandalari ijodiy izlanishlarisiz tasavvur etib bo`lmaydi. XX asrning 10-yillari tashkil topgan bu jamiyat lingvistik va adabiyotshunoslik strukturasi muammolari bilan shug`ullandi. Mazkur jamiyatning Ye.D.Polivanov, Yu.Tinyanov, V.Shklovskiy, R.Yakobson, B.Tomashevskiy, B.Eyxenbaum singari a`zolari lingvistika, adabiyotshunoslik, xususan poetika, adabiyot nazariyasi, matnshunoslik, rus adabiyoti tarixini ilmiy-nazariy yoritishda betakror o`zliklarini namoyon etadilar.

Strukturalizm XX asrda uchta murakkab bosqichni o`tdi. 10-yillarning o`rtalarida boshlangan strukturalizm boshlang`ich pog`ona bo`ldi. Ilk strukturalizm lingvistik va adabiyotshunoslik muammolarini aniq, uzil-kesil ko`rsatib berdi.

Strukturalizmning ikkinchi pog`onasi XX asrning 60-70-yillariga to`g`ri keldi. Fransiyada bu yillar Klod Levi-Stposs (1908), Jak Lakon (1901-1981), Rolan Bart (1915-1980), Mishel Fuko (1926-1984) singari strukturalistlar ijod qildilar. Bular strukturalizm mohiyatini mukammal yoritdilar.

Badiiy tafakkurda ro`y bergan o`zgarishlar adabiyotda darhol namoyon bo`ladi. 80-yillardan boshlab strukturalizmning yangi ko`rinishi – poststrukturalizm paydo bo`ldi. Poststrukturalizm, ramziy aytganda, strukturalizmni biqiqlik, akademik holatdan hayotning jo`shqin oqimiga olib chiqdi. Yangi metod namoyandalari jonli hayot ruhi singgan, xalqona tilda yozilgan matnlarni talqin qila boshladilar.

Struktural metodning maqsadi tarixiy va zamonaviy madaniyat negizidagi fikrlash strukturasini tushuntirish va tavsiflash hamda ko`rsatishdir.

O`zbek adabiyotshunosligida bu metod endi-endi kurtak yozib kelmoqda. Ammo sho`ro zamonida bu talqin-tahlil usuliga ijobiy munosabatda bo`linmagan. Strukturalizmning tilshunoslikka taalluqli ekani aytilgan va ba’zi lug`atlarda: «Ayrim adabiyotshunoslar strukturalizm metodlarini adabiyotga ham tatbiq etmoqchi bo`ladilar. Lekin strukturalizm adabiyot uchun xavfli bo`lib, u so`z san’atinini o`rganishni chegaralab qo`yadi, uni formal qoidalarga tobe qilish xavfini tug`diradi»( «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati», - T., 1983 y.) kabi fikr-mulohazalar uchraydi.

Mazkur metodning tarixiy ildizlari qaysidir ma’noda 20-yillardagi rus formalistlari ijodiga borib taqaladi.

Strukturalizm metodining nazariy asoslari 1940 yillar ikkinchi yarmi 1950 yillarning boshlarida Fransiyada yuzaga keldi. Uning metod sifatida ilmiy tamoyillarini fransuz etnografi Klod Levi Stross (1908 y. t.) ishlab chiqdi. Hech bir mamlakatda strukturalizm haqida Fransiyadagi qadar ko`p yozilgan emas.

Strukturalistlar lug`atida «strukturalizm-bu Levi-Stross» degan ibora ham bejiz maydonga kelmagan.

Klod Levi-Stross rassom oilasida 1908 yilda tug`iladi. Musiqadan dars oladi. 1935-1938 yillarda San-Paulu universitetida professor, 1946-1947 yillarda AQSH dagi Fransuz elchixonasida madaniyat masalalari bo`yicha maslahatchi, 1949-1950 yillarda Parijdagi Antropologiya muzeyida direktor o`rinbosari va boshqa o`quv yurtlarida professor vazifasida ishlaydi.

Levi-Stross o`zining struktural tadqiqotlari uchun Janubiy va Markaziy Amerikada yashovchi qabilalarning miflarini asos qilib oladi. Levi-Stross fikricha, «tushuntiruvchi» va «tushunuvchi» fanlar degan tushunchalar yo`q, gumanitar fanlar tabiiy fanlardagi metod bilan qo`shilganda – assimilatsiya bo`lgandagina o`zlarining chinakam fanlik mavqeiga ko`tariladi. Zotan, struktural metod qaysidir ma'noda tabiiy fan metodlari bilan ham bog`liqdir. (K.Levi-Strossning rus tiliga «Strukturalnaya antropologiya» (1958), «Mo`shlenie dikarey» (1962), «Mifologichnoye» (1964-1971), «Puti masok» (1975) kabi asarlari tarjima qilingan).

Struktural analizda matndagi badiiy unsurlarning munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Matnning muayyan shaklini chizgilar asosida ifoda ham qilinadi (L.S.Vootskiy. «Psixologiya isskustva». -M., 1968). Shuningdek, struktura analizda matndagi (ko`proq miflarda) ikkita binar-qo`shaloq munosabat alohida ahamiyatga ega bo`ladi. Masalan, miflarda hayot va o`lim, o`ziniki va boshqaniki, er va ayol, xom-xatala va pishgan, tabiat va madaniyat tarzidagi binar holatlarni uchratish mumkin.

Struktural metodning adabiyotshunoslikda yuzaga kelishini mutaxassislar tilshunoslikdagi mazkur yo`nalishga bog`lab tushuntiradilar. Xususan, shved struktural lingvisti F.de Sossyur va rus-polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene nomini ko`p tilga oladilar. Shuningdek, Parij lingvistik maktabi, kopengagen, amerika, angliya lingvistik maktabi, amerikalik semiotik olimlar Ch.Pirsa, Ch.Morris, mantiqshunos B.Rassel, R.Karnap, X.Reyxenbax (XX asr boshi) kabi olimlarning xizmatlari ta'kidlanadi.

Bugungi kunda struktural metodni o`z asarlarida miflardan unumli foydalangan D.J.Joys, T.Mann, F.Kafka, G.Garsiya Markes kabi yozuvchilar ijodiga nisbatan qo`llash kuchli.

Struktural metod negizida struktural poetika maydonga keladi. Struktural poetika matndagi barcha elementlarni bir butunlikda ko`radi, ularning o`zaro aloqasini o`rganadi.

Struktural poetikaning asosiy usuli-metodologiyasi badiiy asarni immanent analiz qilishdir. Struktural metod asosida badiiy asar o`rganilar ekan, uning yozilgan muhiti-davri, yozuvchining biografiyasi kabi masalalarga diqqat qaratilmaydi. Tadqiqotchi muayyan matn doirasi bilan cheklanadi va toza «ichki analiz» bilan shug`ullanadi.

Fransuz strukturalisti Rolan Bart (1915-1980) struktural analizni ixtiyoriy yopiq usul deb ataydi. R.Bart ijodining 50-yillari strukturalistchilik faoliyatiga bo`lgan davr hisoblansa, 60-yillar strukturalist, 70-yillarda poststrukturalist sifatida maydonga chiqadi.

Fransuz adabiyotshunosligida 60-yillarda avj olgan bu tadqiqot usuli badiiy asarning ichiga kirishga intildi. Zotan, strukturalistlar ma'lum darajada badiiy adabiyotni sotsiologik va biografik tadqiq etishni inkor qildilar. Ularga «eski» adabiyotshunoslikdagi «harfxo`rlik» ma'qul kelmaydi: san'at asariga hayotdan olingan mexanik nusxa tarzida qaralishini hazm qila bilmaydilar. Avtor va asar munosabatlaridan to`g`rima-to`g`ri aloqani sayozlik deb qaraydilar. Zotan, ma'lum bir shoir sevgi to`g`risida yozsa, dema shoir shu onda kimnidir sevgan va she'r ana shu tuyg`u izohi tariqasida tug`ilgan degan qarashlarni yuzakilik tarzida tushunganlar.

Shu ma'noda R.Bart tipidagi adabiyotshunoslar, «yangi tanqid» tarafdorlari badiiy asarda birgina fikr-g`oya hukmronlik qilmaydi, balki unda bir necha fikr-g`oyalar bo`lish mumkin, deb hisoblaydi. Har davr undan o`ziga xos ma'no-mazmun topadi. Asar o`z mohiyati ila turlanadi, tuslanadi. «Badiiy asarning ramziyligi ham shunda: ramz-bu obraz emas, bu fikr-g`oyalar ko`pligining naq o`zidir» (R. Bart).

R.Bart strukturalizmga faoliyat sifatida qaraydi. «Strukturalizm kak deyatelnost» degan maqolasida, strukturalistning maqsadi muayyan obyekt funksiyasining qoidalarini qamrab olish orqali obyektni qayta tiklashdan iborat. Struktura – bu mohiyatdir, predmetning in'ikosidir. Yo`naltirilgan, manfaatli in'ikosdir... Struktural faoliyatdagi odam voqelikni olib, qismlab chiqadi, so`ngra qismlarini qayta birlashtiradi, degan qarashlarni yozadi. Strukturalizm modellashtiruvchi faoliyat, shu ma'noda ilmiy strukturalizm bilan, adabiy, san'atga doir strukturalizm orasida farq yo`q.

Har ikkalasi ham mimesisga aloqador. Bundagi mimesis substantsiyalar (tub mohiyat, harakatdagi materiya) analogiyasiga (qiyosiga) emas, balki funksiyalar analogiyasiga asoslanadi.

R.Bart bu fikriga dalil o`laroq Trubetskiy fonetik obyekt qurganligini, Jorj Dyumezil funksional mifologiyani ishlab chiqqanligini, Propp xalq ertaklarini struktural analiz etganligini, Klod Levi Stross totimistik fikr-qarashlar funksiyasi analogiyasini o`tkazganligini, J.G.Granje iqtisodiy fikrning formal qoidalarini ishlaganligini, J.P.Rishar Mallerme she'r laridagi ohang xarakterini tadqiq etganligini keltiradi[9].

Struktural faoliyat ikki maxsus operatsiyani o`zida jamlaydi: qismlash va qayta birlashtirish[10].

R.Bart ijod mohiyati ustida fikrlar ekan, «yozuvchi» (pisatel) va «yozg`uvchi»ni (pishushiy) ham strukturaga bog`lab farqlaydi. «Yozuvchi funksiya bajaradi, yozg`uvchi faoliyat bilan mashg`ul bo`ladi». Bulardan birini gramatikadagi «ega» (yozuvchi) va «kesim» (yozg`uvchi)ga o`xshatadi. «Yozuvchi-toza mohiyat». «Yozuvchi shunday kishiki, garchi ilhomi bo`lsa-da, o`z so`ziga ishlov beradi, uni pardozlaydi. Uning funksiyasi shu ishga singib ketadi. Yozuvchilik faoliyatida ikki xil qoida bor: san'at qoidasi (kompozitsiya, janr, xat) va hunar (sabr-toqat va mehnat, tuzatish va mukammallashtirish)[11]. Yozuvchini har doim nima uchun dunyo shunday? U haqda qanday yozmoq kerak? degan savollar

---

[9] R. Bart. Semiotika. Poetika. -M., 1989. 256 str.
[10] Tam je.
[11] R. Bart. Semiotika. Poetika. -M., 1989, 138 str.

bezovta etadi. Yozuvchi o`sha jumboqlar ustida bosh qotirib har xil aldamchi yo`llarga kirib chiqadi. Savolga oxirgi javob topilmaydi.

R.Bart yozg`uvchilarni «tranzitiv» (tashuvchi) tip odamlar, deydi. ular o`z oldiga guvohlik, tushuntirish va o`rgatish kabi maqsadlarni qo`yadi. Yozuvchida ayrim dialektlar (marksistcha, xristiancha, ekzistentsiyalistcha) farqlanish mumkin, ammo yozuvchi so`z ustida mohiyat e'tibori bilan hech qanday texnik ishni qilmaydi.

yozg`uvchidagi eng asosiy xususiyat – soddalik, go`llik.

Yozg`uvchi o`z so`zlari bilan dunyodagi tushuniksiz narsalarni oydinlashtirdim, deya o`ylaydi. Voqelikka bir xil ma'no beradi yoki hech bir bahssiz masalalardan xabar beradi.

Yozg`uvchining funksiyasi – har doim va har joyda o`ylagan narsasini to`xtovsiz aytish bo`ladi.

Zotan, yozuvchida bularning mutlaqo aksi, so`zi – tranzitiv emas, so`zi dunyo haqida qat'iy va oxirgi emas, ko`p ma'noli[12].

R.Bart «Muallifning o`limi» («Smert avtora») nomli maqolasida badiiy asar va uning ijodkoriga mutlaqo yangicha yondashadi. qadim-qadimlarda yozilgan og`zaki ijod namunalarida muallif qiyofasi ko`rinmas edi; uni qandaydir shaman yoki aytuvchi bajarar edi. Muallifning birinchi o`ringa ko`tarilishi yangi zamon mahsuli; u o`rta asr oxirlarida urf bo`la boshlagan.

Muallif adabiyot tarixi darsliklarida ham, adabiy mulaqot va yozuvchi kundaliklarida ham hukmronlik qiladi.

Tanqidchilar Bodlerni ham, Van Gog va Chaykovskiy ijodini ham shaxsiy hayotidagi g`alati kasallik-voqeliklarga bog`lab tushuntiradilar.

Garchi muallif hokimiyati cheksiz quvvatli bo`lsa-da, ayrim ijodkorlar uni mahv etishga urindilar.

Fransuz adabiyotida dastlab bu uslubni Mallarme, so`ngra M.Prust o`z ijodida qo`lladi.

Muallif matnini o`zlashtirish go`yo matnni toptash, unga oxirgi ma'noni berish va xatni cheklab qo`yishdir.

---

[12] Tam je.

Tanqidchi asar muallifi va uning fikrini qamrab olishga, muallifning yagona g`oyasini topishga urinadi. Agar asardan muallif topilsa, demak matn «tushuntirilgan», tanqidchi g`olib kelgan bo`ladi. Taajjublanarli emaski, uzoq yillardan beri muallif hokimligi-bu tanqidchi hokimligi ham edi. Endi esa muallif mahv etilgan joyda tanqidchi ham mahv bo`ldi, o`ldi[13].

Ya'ni, muallif pozitsiyasi aniq ko`rinib turmagan asarlarni adabiyotshunoslik talqin etishga ojiz qoldi. Va bu ojizlik oqibati xayrlidir, ehtimol. Badiiy asar bir ma'nolik emas, ko`p ma'nolilik kasb etar, balki R.Bart fikricha, asardagi barcha tasvir, dialog, bahs va matnning boshqa elementlari muallifda emas, balki o`quvchi – kitobxonda mujassamlashadi.

Kitobxon – asarning har bir parchasi muhrlanib qoladigan borliqdir, zotan, kitobxon biografiyasi tarixsiz, psixologiyasiz - hech nima.

O`tgan tanqidchilik-adabiyotshunoslik kitobxondan uzoq edi; uning uchun adabiyotda faqatgina yozuvchi bor edi.

«Biz endi bilamizki, asarning istiqbolini ta'minlash uchun u haqdagi mifdan qutulmoq lozim. Ya'ni bu u kitobxonning tug`ilishini muallifning o`limi bilan to`lashga to`g`ri keladi, demakdir»[14].

Sotsiologik metodda ijtimoiylik, biografik metodda avtor shaxsiyati ustunlik qilsa, struktural metodda asarning nisbatan mustaqilligi va ichki analizga ko`p e'tibor qaratiladi. Shu bois adabiyotshunosligida «immanent analiz», «mikroanaliz» singari tushunchalar bevosita badiiy asarning ichki imkoniyatlarini namoyon qilish jarayonida qo`llanmoqda.

## Aqliy hujum savollari:

1. "Adabiyotshunoslik va struktural metodlar" fani nimani o`rgatadi?
2. Matnni tirik organizm sifatida idrok etish kerak deganda nimani tushunasiz?
3. "Adabiyotshunoslik va struktural metodlar" fani qaysi fanlar bilan aloqador?
4. Strukturalizm qachon paydo bo`lgan?

---

[13] R. Bart. O`sha asar. 389 bet.
[14] R. Bart. O`sha asar. 391 bet.

5. Strukturalizmning taraqqiyot bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Levi-Strossning struktural-analiz tadqiqotlari.
7. R.Bart faoliyati haqida qisqacha ma`lumot bering.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI:


1. Барт Р. Избранные работы. – М., 1989.
2. Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М., 1986.
3. Дўстхўжаева Н. Сеҳрли эртакларнинг структурал таҳлили // ТошДУ хабарлари. 1999. 1-сон.
4. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
5. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
6. Лотман Ю. Анализ поэтического текста. – Л., 1972.
7. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.
8. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004.


## 6-mavzu: Biografik metod va uning imkoniyatlari

### 1.1. Ma’ruza mashgulotining ta’lim texnologiyasi modeli

| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma’ruza |
| **Ma’ruza rejasi** | 1. Metodning asosiy tamoyillari.<br>2. Biografik metod tarixi va asoschilari.<br>3. Biografik janr va biografik metod xususida.<br>4. O`zbek adabiyotshunosligida biografik metod. |
| **Ma’ruza mashg`ulotining ta’limiy maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga biografik metodning mohiyati, uning tadqiq prinsipi, Sent-Byov, Andre Morua va A.Rasulovning biografik metod haqidagi qarashlari haqida tushuncha berish. |

| | |
|---|---|
| **Ma'ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Mavzuni o`rganish orqali talabalarda biografik metodning mohiyati va uning namoyandalari faoliyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br><br>Biografik metodning asosiy mohiya-tini ochib berish;<br><br>Biografik metodning tadqiq usullari bilan talabalarni tanishtirish;<br><br>O`z faoliyatlarida biografik metoddan unumli foydalangan chet el va o`zbek tanqidchilari faoliyatini tushuntirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br><br>Talabalar biografik metodning asosiy mohiyatini bilib oladilar;<br><br>Talaba-magistrlar biografik metod-ning tadqiq usullari bilan tanishadilar;<br><br>Talabalar chet el va o`zbek olimlari ilmiy faoliyati bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | Ko`rgazmali ma'ruza, Insert jadvali |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

### 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.**<br><br>1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br><br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar.<br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar |

| | | |
|---|---|---|
| min.)<br>1.2. Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | | |
| **2-bosqich.** Asosiy bosqich<br>( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br><br>**2.2.** Mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma'ruza qiladi. | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar.<br>**2.2**.Mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma'ruzani tinglab, yozib boradilar. |
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.<br>**3.2.** Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e'lon qiladi.<br>**3.3.** Mustaqil ta'lim uchun ma'ruza mashg`ulotida olgan bilimlari asosida mavzu bo`yicha o`quv materialini o`rganib kelish vazifasini beradi. | **3.1.** Savollar beradilar. Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Savollarga javob beradilar va baholarini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**REJA:**

1. Metodning asosiy tamoyillari.
2. Biografik metod tarixi va asoschilari.
3. Biografik janr va biografik metod xususida.
4. O`zbek adabiyotshunosligida biografik metod.

**Tayanch so`z va tushunchalar:** *biografik metod, ijodkor shaxsiyati, yozuvchi psixologiyasi, psixologik yondashuv, biografiya va psixologiya paralelligi*

Badiiy ijod mohiyatini, ijodkor psixologiyasini, badiiy asar ildizlarini ochishda biografik metod muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodni sodda, jo`n tushunmaslik kerak. Zotan, biografik metod ijodkor tarjimai holining oddiy xronologik tasnifi emas; yozuvchining tug`ilgan yili, yashagan joyi yoki muhiti,

asarlarining yozilgan yili va nihoyat ijodkorning o`lgan yili – bularning bari biografik ma'lumotlar hisoblanadi.

Biografik metod esa yozuvchi va badiiy asar juftligi ustida ko`proq ish ko`radi. Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga impuls bergan ilhom faktorlariga, ijodkor labaratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e'tibor beradi.

Har bir ijodkor o`zicha bir olam. Chinakam san'atkorlar biri ikkinchisini takrorlamaydi, biri ikkinchisiga taqlid qilmaydi. «Har bir san'atkorning o`z mamlakati bo`ladi va shu mamlakatda yashaydigan, istiqomat qiladigan o`z fuqarolari bo`ladi» (Tal'at Solihov domla). Shu ma'noda har bir ijodkorning o`z dunyosi, o`z e'tiqodiy tayanchlari mavjud. Yuriy Borev badiiy asarga biografik metod asosida yondashuv masalasida «badiiy asarni yozuvchi shaxsi orqali o`qish uslubi», deya yozadi va bu fikriga:«San'atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini o`taydi»,[15] degan jumlalarni qo`shimcha qiladi.

Ilmiy manbalarda adabiyotshunoslik metodlaridan biri sifatida ko`rsatilgan «Biografik metod adabiyotni shunday o`rganish usuliki, bunda yozuvchi biografiyasi va shaxsiyati badiiy ijodining asosiy belgilovchi momenti tarzida qaraladi» (-M.: «L.E.S» 1987, str. 54).

Badiiy asarga 17-18 asrgacha muayyan «abadiy qoidalar» orqali qaralgan. Romantizm davriga kelib bu norma va qoidalar o`zgarib turishi haqida fikrlar maydonga tashlanadi. Y.Borevning ta'kidlashicha, avvalo Viktor Gyugo shunday qarashlarni ilgari suradi. Buyuk fransuz yozuvchisining e'tirofiga ko`ra, «Adabiyotshunoslar tez kunlarda yozuvchilarni g`ayritabiiy, g`ayrisan'atiy qoida va janrlar nuqtai nazaridan tekshirmaslik kerakligini anglaydi. Ular ijodkorni san'at tabiatiga muvofiq qonunlar hamda har bir ijodkor shaxsi bilan bog`liq qonunlar nuqtai nazaridan tekshirish lozimligini his etadi». Fransuz

[15] Borev Y. Isskustvo interpretatsii i otsenki. -M., 1981, str. 56.

romantiklari, adabiyotchi va tarixchilarida yuzaga kelgan bunday e'tiroflar badiiy asarga biografik metod asosida yondashuv masalasini kun tartibiga keltirib qo`yadi.

Adabiyotshunoslikdagi biografik metod prinsiplarining ishlanishi va umuman bu metodning badiiy ijod sohasiga tatbiq etilishini olimlar fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov (1804-1869) nomi bilan bog`laydilar. Jurnallarda bosilgan maqolalaridan «Dushanba kunlaridagi suhbatlar» (1851-1862, «Beseda po ponedelnikam»), «Yangi dushanba kunlari» (1863-1870, «Novoye ponedelniki») kabi ko`p tomli seriyalari yuzaga kelgan. Sent-Byov 24 yoshida «16-asr fransuz poeziyasi va teatrining tarixiy va tanqidiy obzori» (1828) nomli tadqiqot kitobini yozadi. Olimning yana bir kitobi «Imperiya davrida Shatobrian va uning adabiy guruhi» (1861) deb nomlanadi.

Biografik metod mavzuiga daxldor to`plami esa «Adabiy-tanqidiy portretlar» (1836-1839) deb ataladi («Literaturnoye portreti». Kriticheskie ocherki. M. 1970).

Sent-Byov o`rta asrlar fransuz adabiyotini, 16 asr poeziyasini, klassiklardan Kornel, Rasin, Moler, Lafonten ijodini, 18 asr yozuvchilari Volter, Didro, Bomarshe, Russo ijodini, 19 asrdan Shatobrian, Gyugo, Myusse, Jorj Sand va Flober ijodini tadqiq etaroq biografik metod asoslarini ishlab chiqdi.

Sent-Byov o`zining biografik yo`nalishda yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida muayyan yozuvchi xarakteristikasiga alohida e'tibor beradi. Zotan, «Adabiy portretlar» to`plamida: «Meni har doim xatlar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning o`ziga xos turli fazilatlari, ma'naviy-ruhiy qiyofasi; bir so`z bilan aytganda-mashhur yozuvchilarning biografiyasini o`rganish o`ziga jalb etib keldi»,[16] degan fikrlarni yozadi.

Bu metod dunyo olimlari, xususan, sho`ro adabiy-siyosiy mafkurasi bilan qurollangan adabiyotchilar tomonidan keng ishlanmagan va aynan «psixobiografiya», ya'ni yozuvchining psixologik biografiyasi tarzida amaliyotga tatbiq etilmadi. Ammo bir haqiqatni, ya'ni badiiy asarda ijodkorning ruhiy

[16] Sent-Byov Sh. Literaturniye portreti. Kriticheskiye ocherki. -M., 1970, str. 313.

kechinmalari, hayotiy tajribalari o`z izini qoldirishini hech kim inkor eta bilmaydi. Yozuvchi biografiyasi qaysidir darajada uning ijodida aks etadi. qaysidir ma'noda san'at namunasining originalligini, o`ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Yozuvchi hayotidagi o`zgarishlar, ruhiy kechinmalar, silkinishlar, dunyoqarashidagi sakrashlar fonida badiiy asarni talqin etish o`zining ijobiy samaralarini beradi.

Masalan, biz hech qachon «Hind sayyohi», «Munozara», «Rahbari najot» kabi asarlari haqida Fitratning ruhiy-ma'naviy dunyosini, e'tiqodiy qarashlarini, unga ta'sir etgan mikromuhitni tadqiq etmaguncha to`g`ri xulosalar chiqara olmaymiz. Ayni chog`da, oradan o`n-yigirma yillar o`tgandan keyin yozilgan «Me'roj», «Zayd va Zaynab», «Zahroning iymoni» tipidagi hikoyalarni ham Fitratning hayot tajribalari, dunyoqarashidagi o`zgarishlar, muhit tayziqi kabi qator omillarning maxsus tekshiruvisiz anglash mushkul.

Romanlashtirilgan biografiyalar ustasi, mashhur fransuz yozuvchisi Andre Moruaning (1885-1967) adabiyotshunoslikdagi biografik metodga, ayni chog`da, mashhur kishilarning badiiy-estetik biografiyasini yozish an'anasiga ma'lum darajada aloqasi bor.[17] A.Moruaning badiiy-estetik qarashlari uch buloqdan-fransuz, ingliz va rus madaniyatidan bahramand bo`lgan. Rus yozuvchilaridan I.Turgenev, A.P.Chexov, L.Tolstoy haqida maxsus asarlar yozgan. A.Morua Shekspir, Balzak va L.Tolstoy haqida gapira turib, ularga: «Insoniyat uchun insoniyat tomonidan bino etilgan uch buyuk yodgorlik», deya baho bergan[18].

A.Morua inglizlardan Bayron va Shelli, Dikkens va Brouning, Uelles va B.Shouni yaxshi ko`rgan. Fransuz adabiyotining cho`qqisida O.Balzakni qo`ygan. A.Moruaning fransuz adabiyoti taraqqiyot bosqichlari hamda XX asr fransuz yozuvchilarining adabiy portretiga bag`ishlangan to`rtta kitobi bor. Ular «Labryuyerdan Prustgacha» (1964), «Prustdan Kamyugacha» (1963), «Jiddan Sartrgacha» (1965), «Aragondan Monterlengacha» (1967) deya nomlanadi. Bu

[17] Narkirer F. Andre Morua. -M., 1974. -22 str.
[18] Morua A. Prometey ili jizn Balzaka. -M., 1988. -460 str.

kitoblardan tanlanma 1970 yili rus tilida «Adabiy portretlar» sarlavhasi bilan nashr etilgan.

A.Morua Volter hayotini o`ziga xos tarzda yozsa, I.Turgenev va M.Prust hayoti-ijodiga doir mulohazalari adabiy-tanqidiy tadqiqot tipiga yaqin turadi. «Eng asosiysi,-deya yozadi F.Narkirer «Andre Morua» kitobida,-Moruaning barcha yozgan asarlarini bir narsa-uning metodi, ijodga biografik yondashuv metodi birlashtirib turadi».[19] A.Moruaning ko`pgina qarashlari Sent-Byovga yaqin: «Sent-Byov himoyasiga doir» degan maqolasida o`sha olimning: «Men daraxt qanday bo`lsa, mevasi ham shunaqa, deya mamnuniyat bilan aytaman. Shunga monand, adabiy tadqiqot meni psixologik izlanish-tadqiqotlar sari etaklaydi», degan fikrlarini keltiradi.

Adabiyotshunoslikdagi biografik metod uchun psixologik yondashuv, biografiya va psixologiya paralelligi naqadar muhim ekanini ana shu e'tirofdan ham bilib olish mumkin. Zotan, bu metod haqida marksist tanqidchi olimlar biografik metodda badiiy asarning jamiyatdagi funksiyasiga e'tibor qaratilmaydi, badiiy asar muayyan shaxs ijodining mahsulidan iborat qilib qo`yiladi, bu metodda subyektivlik gunohi bor, qolaversa, bu metod sermahsul emas, tarzidagi ayb-tanqidlar bildirganlar. Bu metodda ijod etuvchi adabiyotshunoslar uchun ham qolip tavsiya etishgan: tadqiqotchi san'atkorning adabiy va o`z davri ijtimoiy hayotidagi rolini to`g`ri aniqlay bilishi kerak. Muhimi shu go`yo.

Metodga bunday munosabat ham istaysizmi-yo`qmi baribir ilm ustidagi siyosat, fikr va qalam erksizligidan boshqa narsa emas. Holbuki, bu metodning ijobiy xususiyatlari ko`p. Obrazli qilib aytganda, quyosh nuri yomg`irli ob-havodan o`tib kamalakka aylanganidek, tadqiqotchining nazari ijodkor shaxsiy hayoti prizmasidan o`tib, uning yozgan asarlari ustiga sochiladi; turli ranglarni topadi.

Adabiyotshunoslikdagi hech bir metodni hech kim hech qachon absolyutlashtirishga haqli emas. Chunki ilmda haqiqatga boriladigan yo`l bitta

---

[19] Narkirer F. Andre Morua. -M., 1974. 199-200 str.

emas. Har bir tadqiqot usuli va tadqiqotchi asardagi muayyan masala ustida chegaralanishga va o`z xulosalarini chiqarishga haqlidir. Ma'lum bir tadqiqot uchun tekshiruvning bir necha usullari uyg`un-munosib kelishi ham mumkin.

Andre Morua Onore de Balzak ijodini yoritar ekan, uning «Gorio ota» (1843 yil yozilgan) romaniga alohida to`xtaladi. qahramonlaridagi xatti-harakatlarga, psixologik holatlarga, qiyinchiliklar va kayf-safolarga roman muallifi hayoti prizmasi orqali qaraydi.

A.Morua romandagi Voke hokim ijraxonasida yashaydigan «o`sib kelayotgan personaj» Rastinyak hamda «isyonkor, jamiyatga qarshi urush e'lon qilgan» Votren tabiatidan Balzakka xos xususiyatlarni topadi. Shu ma'noda yozadi: «Balzak o`z sifatlaridan ancha-munchasini Votrenga bergan o`sha davrdagi hamma yosh yigitlar kabi yozuvchi  hali ham Napoleon siymosi oldida toblanishdan xalos bo`lgan emas».

Balzakning Napoleon siymosiga oshuftaligini yana bir fakt ham isbotlaydi. Uning yozuv stoli-kitob javonining eng tepasida yarim metrcha keladigan Napaleonning gips figurasi qo`yilgan. Uning pastiga karton qog`ozda: «U qilich bilan boshlagan ishni qalam bilan oxiriga etkazish kerak! Onore de Balzak», degan yozuv yopishtirib qo`yilgan.

Balzak «Gorio ota» romanida ba'zan Votren, ba'zan Rastinyakka o`z sifatlaridan taqdim etadi. Ba'zan Balzak Votrendek isyonkorona tabiatga kirgandek bo`ldi. «Holbuki, o`zining tabiatiga ko`ra u ham Rastinyakka o`xshagan yumshoq odam. Ezgulik, mehribonlik nima ekanini yaxshi biladigan Jorj Sand qat'iyat bilan shunday derdi: «Bu daho inson to`g`risida u dastavval mehribon va mushfiq odam bo`lgan demoq-uning to`g`risida men biladigan maqtovlardan eng yuksagini aytmoqdir». Biroq xuddi Rastinyak kabi, deyarlik boshqa hamma odamlar kabi Balzak ham murakkab odam edi. Xuddi Rastinyak kabi do`stlikning qadriga etardi. Lora de Berni yoxud Zyulma Karro kabi oliymaqom qalb egalarining ulug`ligi oldida bosh egardi. Uning soddadillik va navqironlik ruhi bilan sug`orilgan intilishlarini namoyon etish uchun «Vodiylar nilufari» yoki «qishloq tabibi»ni o`qib chiqishning o`zi kifoya. Biroq Balzak muhtojliklarga to`lib-toshgan, kishini

yo`ldan ozdiruvchi ermaklari serob bir tarzdagi hayotni kechirdi, bu hayotda u tez-tez g`azab otashlariga ham duch kelib turardi. Tabiiyki, Balzak ham xuddi Rastinyakka o`xshab nima qilib bo`lsa-da, bunaqa turmushdan xalos bo`lishni istagan.

Rastinyak «Gorio ota» romanida hali juda tortinchoq, xijolat chekaveradigan yigit sifatida ko`rinadi. Biz Rastinyak bilan yana qaytadan uchrashganimizda, u endi baron, davlat kotibi, o`z o`ynashini erining ozmi-ko`pmi ongli sherigi («Bankir Nusingenlar xonadoni»), 1845 yilga kelganda esa u endi ministr bo`ladi... Endilikda u «Mutloq ezgulik degan narsa yo`q, faqat sharoit bor» deb da’vo qiladi («O`zlari bexabar mazxarabozlar», «Asridan saylangan noib»). Ko`pincha bu personaj uchun Ter nusxa bo`lib xizmat qilgan deyishadi. Darhaqiqat, Balzak Rastinyak obrazini yaratar ekan, Terning ba’zi bir sifatlarini olgan bo`lishi mumkin, lekin hammadan ortiqroq u o`zining sifatlarini olgan».[20]

Bu ko`chirmadan maqsad biografik metod asosida ish ko`radigan tadqiqotchining ish usuliga bir nazar tashlashdir.

Inchunun, jahon adabiyotshunosligi, xususan, fransuz adabiyotshunosligi-da biografik metodning ham nazariy, ham amaliy tajribalarini, ta’kidlash joizki, muvaffaqiyatli tajribalarini uchratish mumkin.

Adabiyotshunoslik ham xilma-xil metodlar vositasida ish ko`rishga haqli ekanligi oydinlasha borayotgan keyingi yillarda o`zbek olimlari ham quruq, xronologik adabiy portretdan farqli o`laroq biografik metod imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini his etmoqdalar.

Shu ma’noda va ayni chog`da masalaning qo`yilishi jihatdan professor A.Rasulovning «Ilmi g`aribani qo`msab...» (-T., «Ma’naviyat», 1998) kitobidan o`rin olgan «Hol tarjimasidagi saktalik va soxtaliklar» nomli maqolasi bir qadar ahamiyatlidir. Olim bunda yozuvchi biografiyasi bilan uning asari orasidagi uzviy bog`lanish, ruhiy yaqinlik ahamiyatiga alohida e’tibor beradi: «Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog`liqlik bor... Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi,

[20] Andre Morua. «Onore de Balzak», «Jahon adabiyoti» jurnali, 1999 yil avgust soni, 123-135 betlar.

qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o`rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko`p narsalar so`zlab beradi».[21] Olim yana bir kitobida yozadi: «Badiiy asar – xoh u lirik, xoh nasr, xoh drama bo`lsin – yozuvchining ijodi mahsuli. Farzand ota-onaga o`xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asarni talqin etishda yozuvchi ruhiyati, kayfiyati – holatini o`rganuvchi soha bor. Uni biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtai nazaridan yondashish deyiladi».[22]

A.Rasulov kitoblarida aynan ushbu mavzuga, bugungi o`zbek adabiyotshunoslari kam e'tibor berayotgan adabiy talqin usullariga yangicha nuqtai nazardan jiddiy qaraladi.

Dunyo adabiyotida ma'lum bir ijodkorning kotiblari tomonidan yozilgan asarlar ham (Iogann Peter Ekkerman «Gyote bilan suhbatlar»), adiblarning o`z e'tiroflari bitilgan asarlar ham (L.Tolstoy «Iqrornoma») mavjud. Bunday manbalar badiiy asarlarni biografik metod asosida o`rganish uchun kalit vazifasini o`tashi mumkin.

O`zbek adabiyoti tarixidaga «O`tmishdan ertaklar» (Abdulla qahhor), «Bolalik» (Oybek), «Shum bola» (G`afur G`ulom) kabi qator asarlarni aynan shu metod asosida tadqiq qilish o`zining yaxshi samaralarini berishi tabiiydir.

Badiiy asardan uning muallifiga xos xususiyatlarni ko`ra bilish uning muhitini, ma'naviy-ruhiy dunyosini anglash orqali kelib chiqadi. Masalan Abdulla Qodiriy dunyosini anglash asarlarini teranroq tushunishga olib keladi. Zotan, alloma adibning Yusufbek hoji, Otabek, Anvar, Kumush, Ra'no singari qahramonlarida in'ikos etgan bebaho ma'naviy qadriyatlar Abdulla qodiriy ma'naviy-ruhiy dunyosida mavjud edi, albatta. «...Artist bo`lganimda edi, Otabek rolida o`zim o`ynardim... Negaki, Otabek xarakterini mendan yaxshi bilguvchi yo`q...»[23], degan istagi asosida ham o`sha ruhiy butunlik sezimi bor.

---

[21] Rasulov A. Ilmi g`aribani qo`msab. -T.: Ma'naviyat, 1998. –B. 27.
[22] Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. –T.: Fan, 2006. –B. 75.
[23] Qodiriy H. Otam haqida. -T.,1983. -B.113.

Ijod ahli asarlarida birovdan ko`ra ko`proq o`zlarini yozadi. Birovlar, obrazlar vosita bo`ladi, xolos. Ba’zan ijodkorlar asarlari mazmun-mohiyatida o`z dardu dunyosi aks etganini ochiq e’tirof ham qiladilar. Shoir Abdulla Oripovdan «Otello», «Alisher Navoiy», «Alloma» kabi she’rlarining yuzaga kelish tarixi to`g`risida so`ralganda, shunday javob beradi: «Bu she’rlar, albatta, aniq tarixiy sanalar bilan bog`liq. Lekin ularning zaminida mening hayotga munosabatim bor. Bu tuyg`ular kishining yuragida doimo yashab, muayyan bir turtki sababli she’rga o`tgan, xolos».[24]

Xullas, biografik metod imkoniyatlarini chuqur o`rganish va amaliyotga, dunyo adabiyotshunosligida mavjud tajribalar asosida tatbiq etish bugungi adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi.

## NAZORAT SAVOLLARI:

1. Biografik metod asosi va eng muhim tamoyillari nimalardan iborat?
2. Biografik metod asosida yozilgan qanday asarlarni bilasiz?
3. A.Moruaning biografik metod haqidagi qarashlari to`g`risida qanday tasavvurga egasiz?
4. Biografik va psixologik metodlarning o`zaro uyg`un jihatlari mavjudmi?

## ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
4.Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.

[24]Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. -T., 1988. 124-125 betlar.

## 7-mavzu: Psixologik metodning o`ziga xosligi

### 1.1. Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

| **Mashg`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1. Psixologik metodning rivojlanish tarixi va o`ziga xos xususiyatlari.<br>2. Psixologik metod va retsepsiya.<br>3. Psixoanaliz – murakkablashgan psixologik metod.<br>3. O`zbek adabiyotida ruhiy tahlil masalasi. |
| **Ma'ruza mashg`ulotining ta'limiy maqsadi**:<br><br>**Ma'ruza mashg`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga psixoanalitik metodning rivojlanish tarixi, mohiyati, uning namoyandalari haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o`rganish orqali talabalarda psixoanalitik metodning mohiyati va uning namoyandalari faoliyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Psixoanalitik metod tarixi va uning asosiy mohiyatini ochib berish;<br>Psixoanalitik metodning tadqiq usullari bilan talabalarni tanishtirish;<br>O`z faoliyatlarida psixoanalitik metoddan unumli foydalangan chet el tanqidchilari faoliyati bilan tanishtirish. | **O`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar psixoanalitik metodning rivojlanish bosqichlari va uning asosiy mohiyatini bilib oladilar;<br>Talaba-magistrlar psixologik metod-ning tadqiq usullari bilan tanishadilar;<br>Talabalar chet el olimlari ilmiy faoliyati bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | BBB jadvali, ko`rgazmali ma'ruza, munozara, aqliy hujum metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |

| | |
|---|---|
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

## 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.** 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.) 1.2. Mavzuga kirish (10 daqiqa) | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi. **1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.** Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar. **1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.** Asosiy bosqich ( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi. **2.2.** O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab magistrlarga BBB jadvali taklif etiladi va uning **Bilaman, Bilishni xohlayman** grafalari to`ldiriladi. Mavzu rejasi punktlari bo`yicha ma'ruza qiladi. **2.3.** Talabalarning o`tilgan mavzuga tegishli bilimlarini sinash va mustahkamlash | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar. **2.2**. BBB jadvalining 1-2-grafalarini to`ldiradilar. Mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma'ruzani tinglab, yozib boradi-lar. **2.3.** Ma'ruzani ting-lab, yozib oladilar, |

| | | |
|---|---|---|
| | maqsadida "Aqliy hujum" metodidan foydalanib, savollar beradi. | savollarga javob beradilar. |
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldirishni topshiradi. Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e'lon qiladi.<br>**3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e'lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Magistrlar BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldiradilar. Savollarga javob beradilar va baho-larini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1. Psixologik metodning rivojlanish tarixi va o`ziga xos xususiyatlari.
2. Psixologik metod va retsepsiya.
3. Psixoanaliz – murakkablashgan psixologik metod.
4. O`zbek adabiyotida ruhiy tahlil masalasi.

**Tayanch so`z va tushunchalar:** ruhiy tahlil, psixologizm, retsepsiya, his-tuyg`u, adabiy-estetik kategoriya, psixoanaliz, freydizm, motiv, arxetip, ongsizlik.

Adabiyotshunoslikdagi mazkur metod XIX asr oxirlarida G`arbiy Yevropa va Rossiyada yuzaga keldi. Adabiyotshunoslar badiiy adabiyotni talqin etishda falsafa, sotsiologiya va estetikadan bir oz cheklanib psixologizmga yuz burdilar. Psixologizm tarafdorlari madaniy-tarixiy maktab (sotsiologik metod) hamda biografik metod imkoniyatlarini qayta ko`rib chiqib, ayni paytda uni taraqqiy ettirib, shu metod asoslarini ishlab chiqdi.

Mazkur metod ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi-avtorning ruhiy-ma'naviy dunyosiga asosiy e'tiborni qaratdi. Shu bilan birga badiiy asarni

o`quvchining ruhiy olami ham bu yo`nalish tadqiqotchilari uchun muhimdir. Chunki badiiy asarni o`zlashtirish ham bevosita insonning ma'naviy-ruhiy dunyosiga tegishli masaladir. Zero, san'at eng avvalo inson o`zligining, ma'naviy-ruhiy olamining tashqi faktorlari in'ikosining hosilasidir.

Psixologik yo`nalish adabiyotshunoslari fikricha, badiiy asardagi barcha xos xususiyatlar muallifga aloqador. San'at va adabiyotning tarixiy taraqqiyoti degan masala bunda ikkinchi planga tushadi. Birinchi planda asar mazmunining subyektiv tomoni turadi.

X1X asr oxiri XX asr boshlarida bu yo`nalishning G`arbiy Yevropada E.Enneken, V.Vundt, I.Folkelt kabi namoyandalari faloiyat ko`rsatdi. Fransuz olimi E.Enneken har qanday madaniy hodisani o`rganish jarayonida analizning uchta – estetik, psixologik hamda sotsiologik jihati baravar ishlashi kerak. Bunday «Estopsixologiya»ning rus olimlari orasida ham tarafdorlari topildi. Rossiyada A.A.Potebnya, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, A.G.Gorifeld, T.Raynov, B.Lezin kabi filolog olimlar psixologik holatlarni tadqiq qildilar. Bu yo`nalish vakillari rus adabiyotshunosligida til va tafakkur, badiiy obraz nazariyasi, badiiy va ilmiy ijod psixologiyasi hamda badiiy asarni o`zlashtirish masalalariga jiddiy e'tibor berdilar.[25]

Ayniqsa, rus adabiyotshunosligida A.A.Potebnya (1835-1891) shogirdi Dmitriy Nikolaevich Ovsyaniko-Kulikovskiy (1853-1920) psixologik yo`nalishdagi adabiyotshunoslikka o`zining munosib hissasini qo`shgan olimlardan biri sifatida e'tirof qilinadi. Dastlab tilshunoslikka, so`ngra adabiyotshunoslikdagi psixologizm masalalariga qiziqadi. Ustozi A.A.Potebnyadan ma'ruzalar eshitadi. D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy Xarkov va Peterburg universitetlarida ishladi. Olimning «K psixologii ponimaniya» asarida anglashga doir muhim qarashlarni ilgari suradi. Zotan, birovning qarashlarini, badiiy asarni tushunish va anglash jiddiy masala. I.V.Gyote: «nikto ne ponimaet drugogo; nikto pri tex je samo`x slovax ne dumaet togo, chto dumaet drugoy; razgovor, chtenie u razno`x lits

---

[25] Osmakov N.V. Psixologicheskoye napravleniye v russkom literaturovedenii. -M., 1981. Str. 13.

vozbujdaet razlichno`e ryado` mo`sley...», degan fikrni aytsa, V.Gumboldt, har qanday tushunish-anglash ayni paytda anglamaslik hamdir, deydi. Tushunishning psixologik holatlarini shu salaflari izidan borib o`rgangan D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy biror bir odam boshqa bir odamni to`liq ravishda tushunishi mumkin emas; agar shu hol yuz bersa, bunda tushunayotgan odam o`z individul xususiyatlarini yo`qotib boshqa kimsaga aylangan bo`ladi, degan fikrlarni ilgari suradi. Bu qarashlarni badiiy asar doirasiga tatbiq qiladi. Zeroki, badiiy tafakkurga ega o`quvchining ayrim qarashlari muallif fikrlariga mos kelsa, shu moslik anglab olinadi, to`lig`incha tushunilmagan boshqa nuqtalar baribir qolaveradi.

Olim his-tuyg`u va fikr munosabalariga ham diqqatini qaratadi. His-tuyg`uni quyidagicha: «1. Organik tuyg`u (ya'ni biologik).2. Organikdan yuksak tuyg`u. 3. Sotsial tuyg`u. 4. Sotsiallikdan yuksak tuyg`u», deb tasniflaydi va ularning har birini badiiy ijodga aloqadorlikda tushuntirib beradi...

Xullas, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy kabi olimlarning psixologik metodga daxldor bunday qarashlarini o`rganish foydali bo`ladi.

XX asr boshlariga kelib psixologik yo`nalish g`arb adabiyotshunosligida psixoloanaliz ta'limotiga asoslangan holda davom etdi. Oqibatda, adabiyotshunoslikdagi psixologik yo`nalish nisbatan murakkablashib, psixoanalitik tadqiqot yo`nalishlari maydonga keldi.

Adabiyotshunoslikdagi psixonaliz shunday tadqiqot usuliki, unda badiiy asar, ongsizlik (bessoznatelniy) psixologiyasi bilan birlikda talqin etiladi. Psixoanalizda badiiy ijod inson psixikasidagi qandaydir ongsiz, ongosti jarayonlaridan olingan impuls, inertsiyaning ramziy mahsuli sifatida qaraladi.

Psixoanaliz adabiyot tarixida bir qator sujet sxemalarini ajratib ko`rsatadiki, bunda muallif muayyan darajada qahramon dunyosiga ko`chgan bo`ladi; va u muallif o`zining ongosti istaklarini yoki ijtimoiy muhit va axloqiy mezonlar bilan tragik to`qnashuvlarini tasvirlaydi. Psixoanalitiklar Sofoklning «Shoh Edip», V.Shekspirning «Hamlet», M.F.Dostoyevskiyning «Aka-uka Karamazovlar» asarlarida «edipcha kompleks»ga aloqadorlikda padarkush-otasini o`ldiruvchilar motivini ko`radilar.

Zingmund Freyd o`zining «Shoir va fantaziya», «Dostoyevskiy va padarkush» kabi asarlari bilan adabiyot va san'atga psixoanalizni tadbiq etishning namunalarini berdi. Mazkur maqolalarida Z.Freyd ayni paytda psixoanaliz bilan adabiyotshunoslikni aralashtirib-qorishtirib yubormaslik kerakligini ta'kidladi.

Freyd psixoanalizi ijodiy jarayonga, «men»ga, biografik ma'lumotlarga e'tibor bersa, K.G.Yung nazaridagi psixoanaliz individual holatlarni emas, balki botiniy shuurning milliy va umuminsoniy qirralarini tadqiq etadi. Ularni o`zgarmas obrazli formula-arxetip («model») deya ataydi. «Arxetip» -Yung nazarida motivlar va ularning kombinatsiyalar, umumiy-qat'iy psixologik sxemalar (figuralar), urf-odat, miflar, simvolika, ishonch, psixik faoliyat (tush ko`rish), shuningdek, ijodiy jarayon mohiyatida ongsiz ravishda zohir bo`ladigan holatlardir.

Bunda muhimi ijodkor shaxsi emas, ijod mahsuli va ongsizlik ramzi muhimdir. Makon va zamonning tarixiy bo`lmagan umumiy fenomenlari («ochiq» va «yopiq», «ichki» va «tashqi»), fizik va biologik substansiyalar («er» va «ayol», «o`spirin» va «qarilik»)ga diqqat qaratiladi. Psixoanalizdagi bunday jihatlar fransuz olimi G.Bashlar asarlarida uchraydi.

Rus adabiyotshunoslaridan L.S.Vigotskiy, V.N. Voloshinov, M.M. Baxtin kabi olimlar shu masalalarga e'tibor beradilar. Dadaizm, syurrealizm, ekspressionizm, mifologizm singari adabiy oqimlarga tegishli asarlar psixoanaliz vositasida tushuntirishga harakat qilingan.

XX asrning 20-30 yillarida rus adabiyotshunosligida Freyd ta'limoti, psixoanaliz xususida bahslar biroz kuchaygan edi. Uni tasdiqdovchilar, unga oshufta bo`lganlar ko`p edi. Har qanday masalani psixoanaliz asosida tushuntirib berishga intilganlar, psixoanalizni bilishning yagona vositasi sifatida talqin qilganlar bo`ldi. Xorijda yashab ijod qilgan rus yozuvchisi Vladimir Nabokov 1931 yilda «Har kim nimani bilmog`i kerak?» degan maqolasida yozadi: «Janoblar, agar sizlar bir narsani yaxshi o`zlashtirib olmasanglar, ya'ni hayotni jinslar boshqarishini bilmasanglar, hech qachon turmushning olaquroq to`qimasida hech narsani farqlay olmay o`tasizlar. Suygilimizga yoxud bizdan qarzdor odamga maktubni yozadigan qalamimiz erkaklik ibtidosidir, bu maktubni tashlaydiganimiz

pochta qutisi esa – ayollik ibtidosidir».[26] Yozuvchi hamma narsani «jinsiy ibtido»ga bog`lashga urinadi. Hatto filologlarning tasdiqlashiga ishonga holda aytadiki, «barometr tushib ketdi», «soat yotib qoldi», «barg uzildi», «ot yiqildi» kabi qator iboralar ham «yo`ldan toygan ayol»ga ishora sanalar emish. Bunday qarashlarga o`sha 30-yillarda ham, XX asr oxiriga kelib ham tanqidiy munosabatlar bildirilgan. Masalan, biolog olim Mixail Bogoslovskiy o`zining 2000 yilda «Literaturnaya gazeta»da e'lon etgan «U bizni behuda tentiratdi» degan maqolasida freydizm asoslarini, har qanday masalani jinsiy mayllarga yoki tushga bog`lagan holda talqin etishni tanqid qiladi. Olim yozadi: «Bugun qat'iy ravishda aytish mumkin – Freydning «kattalar ko`radigan tushlarning ko`pchiligida seksual omillarning muhri mavjud va shahvoniy ishtiyoqlarni ifodalaydi» degan fikri haqiqatga to`g`ri kelmaydi. Professor V.N.Kasatkin 16300 ta tushni tahlil qilib, shuni aniqlaganki, bu tushlarning 13,5 foizidagina seksual mavzu mavjud ekan».[27] Boshqa bir o`rinda Freydning ayrim qarashlari dalillanmagan degan bir fikrni bildiradi. «Freydning tushlarni talqin qilishi – XX asrning eng zo`r firibgarligidir. Bu soxtakorlikdan o`zga narsa emas: u o`rganayotgan tushlarini o`z aqidalari qolipiga joylashga harakat qilgan». Psixoanalizni badiiy adabiyotga, adabiy asar talqini uchun tatbiq etishda ham shunday ziddiyatli holatlar bor, albatta. Freyd ta'limoti haqiqatni anglashning yagona, mutloqlashgan yo`li emas. Bu xususda fikrlar, bahs-munozaralar silsilasi davom etishi ham tabiiy. Ammo inson ruhiyatni to`la-to`kis bilishi mumkin emas, chunki insoniyatga bu xususda «faqat ozgina ilm berilgan, xolos».

Ammo faylasuflar, psixologlar ruh xususda fikr yuritishdan to`xtamaydi. Shuningdek, badiiy asarlarida odamning g`am-qayg`usi, shodligi, ichikishi, o`kinishi, ichki bezovtaligu xotirjamlikni – umuman ruhiy holatlarni tasviriga ishtiyoqmand ijodkorlarda ruhiyatga murojaat davom etaveradi. Dunyo adabiyotshunosligida psixoanalitik metod asosida badiiy asarlar mohiyatini tushuntirishga urinish mavjud hodisa. Bir qator murakkab avtorlar-fenomenlar ijodi

---

[26] «Yozuvchi» gazetasi. 2001 yil, 27 yanvar.
[27] «Yozuvchi» gazetasi. 2001 yil, 27 yanvar.

(M.Dostoyevskiy, Kleyst) shu metod vositasida tahlil etildi. Psixoanalizni badiiy shakl hamda adabiyotning jamiyatdagi o`rni haqidagi fanlar bilan birlashtirish harakatlari ham bo`lgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin psixoanalizning ikki yo`nalishi- ekzistentsionalizm va strukturalizm yo`nalishlari keng tarqaldi.

Ekzistentsianlizm bo`yicha J.P.Sartr, A.Malro, S. Dubrovskiy kabi olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi. Strukturalizm bo`yicha J.Lakan, R.Bartlar muhim ilmiy ishlar qildi.

Sho`rolar zamonidagi marksist adabiyotshunoslar tomonidan tanqid etilgan psixoanalitik analizga 70-80-yillarga kelib yana qiziqish ortdi.

Adabiyotshunoslikdagi psixologizm bir tomondan badiiy asarlardagi qahramonlar ruhiyatini tadqiq qilsa, ikkinchi tomondan badiiy asar ijodkorining ruhiy olamiga, badiiy asarni o`qiyotgan kitobxonning ma’naviy-ruhiy dunyosiga e’tibor beradi. Shu bois psixologik tahlillarda biografik metod tajribalariga ham tayanadi.

Bu yo`nalishdagi maxsus adabiy-ilmiy tadqiqotlar o`zbek adabiyotshunosligida ko`p emas. Biroq psixologik tahlilning tub mohiyatiga yaqinlashgan ayrim ilmiy tadqiqotlarning o`zbek adabiyotshunosligida ham yuzaga kela boshlaganini aytib o`tish lozim.

**Nazorat savollari:**

1. Badiiy asarning psixoanalitik talqini nima?
2. Psixopoetika deganda nimani tushunasiz?
3. Freyd psixoanaliziga to`xtaling.
4. Psixik-arxetiplar nima?

**Adabiyotlar:**


1. Алимуҳаммедов А. А.Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // XX аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
2. Выготский Л. Психология искусства. – М., 1968.

3. Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари // XX аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
4. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989.
5. Фром Э. Душа человека. – М.,1992.
6. Хосе Ортега-и-Гассет. Дегуманизация исскуства. – М., 1991.
7. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011.

## 8-mavzu: Lingvistik metodning asosiy prinsiplari

### 1.1. Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

| **Mashg\`ulot vaqti - 80 minut** | Magistrlar soni – |
|---|---|
| **Mashg\`ulot shakli** | Kirish-axborotli ma'ruza |
| **Ma'ruza rejasi** | 1.Badiiy asar tili – adabiyotshunoslik obyekti sifatida.<br>2. Lingvistik metodning asosiy tamoyillari.<br>3. Matnda so\`zning o\`rni.<br>4. Lingvistik metod va badiiy uslub. |
| **Ma'ruza mashg\`ulotining ta'limiy maqsadi**:<br><br>**Ma'ruza mashg\`ulotining rivoj-lantiruvchi maqsadi**: | Ushbu mavzu orqali talabalarga lingvistik metodning rivojlanish tarixi, mohiyati, uning namoyandalari haqida tushuncha berish.<br><br>Mavzuni o\`rganish orqali talabalarda lingvistik metodning mohiyati va uning namoyandalari faoliyati haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish. |
| **Pedagogik vazifalar:**<br>Lingvistik metod tarixi va uning asosiy mohiyatini ochib berish;<br><br>Lingvistik metodning tadqiq usullari bilan talabalarni tanishtirish; | **O\`quv faoliyati natijalari:**<br>Talabalar lingvistik metodning rivojlanish bosqichlari va uning asosiy mohiyatini bilib oladilar;<br><br>Talaba-magistrlar lingvistik metod-ning tadqiq usullari bilan tanishadilar; |

| | |
|---|---|
| O`zbek adabiyotshunosligida lingvistik yo`nalishda yozilgan ilmiy asarlar bilan tanishtirish. | Talabalar lingvistik yo`nalishda yozilgan ilmiy asarlar bilan tanishadilar. |
| **Ta'lim berish usullari** | BBB jadvali, ko`rgazmali ma'ruza, munozara, aqliy hujum metodi |
| **Ta'lim berish shakllari** | Ommaviy, jamoaviy |
| **Ta'lim berish vositalari** | O`quv qo`llanma, kompyuter, jadval |
| **Ta'lim berish sharoiti** | O`TV ga moslashtirilgan auditoriya |
| **Monitoring va baholash** | Og`zaki savol-javob |

### 1.2. O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

| **Ish bosqichlari va vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **Ta'lim beruvchi** | **Ta'lim oluvchilar** |
| **1-bosqich.**<br>1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min.)<br>1.2. Mavzuga kirish<br>(10 daqiqa) | **1.1.** Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o`quv mashg`ulotining maqsadi va o`quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.<br><br>**1.2.** Mashg`ulotni o`tkazish shakli va baholash mezonlarini e'lon qiladi. | **1.1.**Tinglaydilar, mavzu nomini va rejalarini yozib oladilar.<br><br>**1.2.** Tinglaydilar va yozib oladilar. |
| **2-bosqich.**<br>Asosiy bosqich<br>( 50 daqiqa) | **2.1.** Mavzu mohiyatini aks ettirgan adabiyotlar ro`yxati bilan tanishtiradi.<br><br>**2.2.** O`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab magistrlarga BBB jadvali taklif etiladi va uning **Bilaman, Bilishni xohlayman** grafalari to`ldiriladi. Mavzu rejasi punktlari bo`yicha ma'ruza qiladi.<br><br>**2.3.** Talabalarning o`tilgan mavzuga tegishli | **2.1.** Adabiyotlar ro`yxatini yozib oladilar.<br>**2.2**. BBB jadvalining 1-2-grafalarini to`ldiradilar. Mavzu rejasining punktlari bo`yicha ma'ruzani tinglab, yozib boradi-lar.<br>**2.3.** Ma'ruzani ting- |

| | | |
|---|---|---|
| | bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida “Aqliy hujum” metodidan foydalanib, savollar beradi. | lab, yozib oladilar, savollarga javob beradilar. |
| **3-bosqich.** Yakuniy bosqich (15 daqiqa) | **3.1.** Mavzu bo`yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>**3.2.** BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldirishni topshiradi. Talabalarni nazorat qilish uchun savollar beradi va reyting ballarini e’lon qiladi.<br><br>**3.3.** Navbatdagi mashg`ulotda o`tiladigan mavzuni va uyga vazifani e’lon qiladi. | **3.1.** Xulosalarni tinglaydilar.<br>**3.2.** Magistrlar BBB jadvalining **Bilib oldim** grafasini to`ldiradilar. Savollarga javob beradilar va baho-larini bilib oladilar.<br>**3.3.** Uyga vazifani yozib oladilar. |

**Reja:**

1.Badiiy asar tili – adabiyotshunoslik obyekti sifatida.

2. Lingvistik metodning asosiy tamoyillari.

3. Matnda so`zning o`rni.

4. Lingvistik metod va badiiy uslub.

**Tayanch so`z va tushunchalar:** badiiy so`z, uslub, badiiy uslub va til, lingvopoetika, so`z va obraz, kalit so`z, monologik va dialogik nutq, tovush rangi, sheva, fonetika, leksika.

Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlaridan aynan “so‘z san’ati” ekani bilan ajralib turadi.Badiiy so‘z va ularning turli shakldagi birikuvlaridan badiiy matn maydonga keladi. Badiiy adabiyot uchun obrazli tafakkur va tafakkur tarzi uchun estetik ta’sirga ega so‘z muhim sanaladi. Poetik so‘z orqali turli obrazlar, moddiy va ma’naviy borliq tasvirlanadi. Shuning uchun til badiiy adabiyotda eng asosiy tasvir vositasi sanaladi. Kishilik jamiyatidagi so‘z, til, nutq hodisasini adabiyotshunoslik ham o‘rganadi.

Tilshunoslik maxsus fan sifatida tilning umumiy tabiyatini, tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini,kommunikativ-ekspressiv, akkumulyativ xususiyatlarini, til falsafasini, tilning grammatik qurilishini, areal, sotsial jihatlarini qamrab oladi. Tilshunoslikning stilistika bo‘limi turli nutq uslublarini tahlil qiladi. Nutq

uslublaridan biri bo‘lgan badiiy uslub bevosita badiiy asar tilining ifoda shakli hisoblanadi. Aslida, til va adabiyot alohida soha sifatida ajratish nisbiydir. Badiiy matn ichidagi so‘z alohida lug‘atlardagi so‘zlardan, badiiy asar tili qoliplashgan adabiy tildan, badiiy matn aynan moddiylashgan badiiy asardan farq qiladi.

Xo‘sh, lingvistik metod deganda nimani tushunish kerak? Badiiy asar tiliga lingvistik yondashuv qanday bo‘ladi? Aslida barcha adabiyotshunoslik metodlari badiiy asarni tekshirish jarayonida asar tiliga, nutq qurilishiga alohida urg‘u beradi. Estetik, biografik, formal,struktural, psixologik jihatdan yondashuv jarayonida badiiy asar tiliga diqqat qilinmasligi mumkin emas. Badiiy asar tili adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari oralig‘idagi o‘rinni egallaydi. Har ikki fan sohasi uchun ham obyekt sanaladi.

Lingvistik vositalar yordamida badiiy asarning g‘oyaviy-emotsional qirralarini ko‘rsatish mumkin. Bunda matndagi badiiy so‘zga, takrorlarga, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga, eski so‘zlarning qo‘llash doirasiga, umuman olganda, badiiy tasvir vositalariga diqqat qaratiladi.

Ta’kilash lozimki, ayrim olimlar juda soda qiyoslash bilan, badiiy adabiyotning materiali-so‘z, til… Badiiy adabiyot til asosiga qurilgan. Buni kitob qog‘oz va tipografik bo‘yoqlardan tarkib topganiga o‘xshatish mumkin, deb hisoblaydi(Gukovskiy G.A.) . V.V.Vinogradov esa badiiy asar tiliga, uslub masalalariga filologik tarmoqlarning ikkalasiga ham yaqin turadigan, ammo har ikkalasidan ajralib turadigan alohida “ badiiy asar tili haqidagi fan ” sifatida qaraydi. Badiiy nutq stilistikasining alohida fan sifatidagi obyektini olim quyidagi tarzda belgilaydi:

1) badiiy adabiyot stili;
2) badiiy so‘z spestifikasi;
3) so‘z va obraz masalasi;
4) badiiy asar uslubi;
5) badiiy asar kompozitsiyasi uslubi;
6) badiiy obrazlar uslubi.

Bundan maqsad matnga mos tahlil yo‘li bilan badiiy asarning o‘ziga xos qonuniyat va uslubiy xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, ma'lum bir adibning idividual mahoratini, adabiy yo'nalish va badiiy asar uslubini aniqlash hamda tavsiflashdan iboratdir. Shu tarzda u yoki bu milliy adabiyot stilistikasi tarixi yaratiladi.

Badiiy matnni lingvistik jihatdan tadqiq qilganda avtor obrazi, roviy, hikoyachi, lirik qahramon, nutq tiplari, matn ritmi va boshqa turli unsurlarga diqqat qaratiladi. Albatta, badiiy matn markazini avtor obrazi egallaydi. Matn uslubi, nutqdagi turli ohanglar almashinuvi, avtor nutqi bilan roviy nutqi aynan lingvistik metod vositasida aniqlashtirildi.

Adabiyotshunos olimlarning ta’kidlashicha, badiiy asar matni murakkab strukturadan iborat. Undan 1)g‘oyaviy-estetik(mazmun jihati), 2) janr-kompozitsion (shakl jihati) xususiyatlar hamda til sathi (nutqning estetik tizimi) farqlanadi. Tabiiyki, bu strukturaning sathlarga ajratilishi shartli. Qolaversa, badiiy asar maydonga kelishdagi psixologik jarayonlar, uni o‘qish, o‘zlashtirish, tushunish, tushuntirish va boshqa subyektiv holatlar ham mavjuddir.

O‘z navbatida, badiiy asarning til sathi fonetik, leksik-semantik, grammatik (morfologik va sintaktik), stilistik va boshqa bir qator jihatlarni qamrab oladi. Badiiyat tilde aks etadi. Lekin bu badiiyat faqatgina nutqiy hodisalardan, troplar yoki boshqa tasviriy vositalardangina iborat emas. Obrazlilik tekshirilganda tildagi turli poetik elementlar bilan bir qatorda asarning kompozitsiyasi, rivoya usuli va boshqa jihatlarga ham e’tibor beriladi.

Badiiy asar matnini lingvistik analiz qilishda quyidagi tamoyillar muhim sanaladi:

- badiiy matnga g‘oya va mazmun obrazlar tizimi va tili nutqi nazaridan kompleks tarzda qarash;
- badiiy matnga tarixiy aspektda yondashish, ya’ni undagi o‘z davriga xos leksik qatlam hamda so‘z birikmalarini, gap qurilishidagi o‘ziga xoslikni inobatga olish;

- badiiy asar tiliga voqelikni aks ettiruvchi o‘ziga xos shakl hodisasi sifatida munosabatda bo‘lish;
- badiiy asarning retsepientga, ya’ni kitobxon faoliyatiga,uning muallif bilan “hamkorligi” ga hamda badiiy matn mazmunining kitobxon tafakkurida kengayish hodisasiga diqqat qaratish;
- matn talqinida bitta usulni mutloqlashtirmaslik, boshqa analiz yo‘sinlari ham borligini esda saqlash lozim.

Badiiy matnning lingvistik analizi turlicha bo‘lishi mumkin. Qaysidir tadqiqotda lingvistik sharh, ya’ni so‘z va so‘z birikmalarining izohi ustuvorlik qiladi. Bevosita lingvistik analizda estetik qiymatga ega tasviriy vositalar, obrazlilik, kalit so‘zlar, trop yoki frazeologik birliklar o‘rganiladi. Shuningdek, badiiy matn kompleks tarzda-asar g‘oyasi, shakl va mazmuni badiiy asar tiliga aloqadorlikda tekshiriladi. Bunday tahlil so‘zning matndagi hayotini to‘laqonli tadqiq qilishga imkon beradi

Lingvistik tahlilda badiiy matndagi dominant unsurlar, kalit so‘zlar (deylik: “Siz o‘shami?”, “xabba”, “kishan”, “na’matak”, “majnuntol”) muhim sanaladi. Tadqiqotchi lingvistik elementlar va ularning o‘zaro munosbati asosida badiiy asarning xos xususiyatini ochishi kerak bo‘ladi. A.Blok aytadiki: “Har qanday she’r matni bir necha so‘z ustiga yoyilgan yopinchiqdir. O‘sha so‘zlar matnda xuddi yulduzlardek charaqlab, nur sochib turadi ”. Shunday so‘zi bor shoirlar baxtlidir. Nurli va eng muhim so‘zni topish-bu tadqiqotchining mahoratidan darak beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida ayrim olimlar (P.Giro, E.S.Aznaurova) badiiy asar tili tadqiqiga nisbatan “stilistik maydon” tushunchasini qo‘llaydi. Stilistik maydon juda ko‘p lingvopoetik elementlarni o‘zida jamlaydi. Bunda alohida olingan badiiy asar tilidagi troplar, hatto “kalit so‘zlar” ga ham emas, balki ijodkorning butun asarlari tilidagi o‘ziga xoslik nazarda tutiladi. Aslida bu nazariy konsepsiya ichki-immanent stilistikaga taalluqli bo‘lib, tadqiq natijasida ijodkor shaxsiyatining individual uslubi aniqlanishi mumkin. Stilistik maydon muayyan adib asarlarining tilidagi so‘zlarni ma’noviy guruhlarga ajratib jamlashdan yuzaga

keladi. Bu guruhlar struktural jihatdan “osmon”-“yer”, “olim”-“johil” tarzidagi tazodli kutblarda joylashishi ham mumkin. Stilistik maydon “yopiq kod ” sanaladi; umumxalq tilidan ajratib qaraladi.Bunga e’tiroz bildirgan boshqa bir olim “badiiy asar tilini umumxalq tilidan” ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi; uni mazmunning estetik funksiyasiga bo‘ysundirilgan umumxalq tilining individual ko‘rinishi deb hisoblaydi ( Z.I.Xovanskaya).

Badiiy asar pafosini aniqlashda ham badiiy matndagi “so‘z hayoti” ni, so‘z urg‘usi, frazeologik birlik, jumla qurilishi va shu kabi ko‘plab lingvistik unsurlarni ham tekshirish lozim.

Ba’zi olimlar qarashlarida badiiy asar tilini : “Adabiy muloqotda til-bu vosita emas, balki maqsadning aynan o‘zidir ” (P.Giro); “Poetik til, adabiy til mezonlariga begonagina emas, balki batamom unga qarshi hamdir. Badiiy til mohiyati o‘sha mezonlarning buzulishi bilan izohlanadi ”(S.Todorov); “Poeziya materiali obraz ham, emotsiya ham emas, balki tildir ” (V.Jirmunskiy); “Adabiyot til faoliyatiga tegishli”, “adabiyot –bu aniq bir tildir ”(J.Jenet) tarzida mutlaqlashtirish holatlari ham kuzatiladi.

Dunyo adabiyotshunosligida, xususan, strukturalistik-semiotiklar badiiy matnda so‘zning denotativ va konnatativ ma’nolarini farqlaydilar. Badiiy matn ko‘p ma’noli, serqatlam ramzlardan tashkil topishi uchun poetik so‘zning ko‘chma ma’nolari-troplar, metafora, frazeologik birliklar, umuman, konnatatsiya asosiga qurilishi zarurligi haqidagi fikrni ilgari suradilar.

Lingvistik metod badiiy matndagi so‘zni, shakl unsurlarini tadqiq qilish jihatidan formal maktab vakillarining ilmiy- estetik tadqiq tamoyillariga yaqin turadi. Badiiy matndagi ohang-ritmni yuzaga keltirishda, bu orqali mazmunni ifodalashda unli va undosh tovushlarning, fonologik konstruktsiyalarning ahamiyati katta. Tabiiyki, lirik pafosga ega asarlar bilan fojeaviy pafosli tragic asarlarda ko‘llangan til unsurlari o‘zaro farq qiladi. Tovushlar badiiy asar g‘oyaviy-mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Vadud Mahmud bir maqolasida Alisher Navoiy Majnunning g‘ami tasviriga tegishli:

“Ko‘ngliga o‘guldi ko‘hi anduh,

Anduhi yig'ildi ko'h to ko'h",- baytini tahlil qilib yozadi:
"shu baytda "o'" tovushining ug'ultisi, "g" ning gumburlashi, "h" ning sochilib ketishi va bu tovushlarning takrori haqiqatan tog'ning yiqilib, ustiga sochilib, maydalanib ketishiga, yiqilib daralarning to'lub, baqirib ketishiga o'xshamaydimi?" Albatta, g'am-anduh tasvirida baytdagi tovushlar ham mazmun ifodasi uchunxizmat qilgan.

Yana ohang va mazmunning muvofiq kelishi xususida Fitrat "Muhammad Solih" maqolasida shunday tanqidiy fikrni aytadi:" Asar uchun qabul qiling'on vazn "ramali musaddasi mahbun " urushg'a oid mavzularda munosib ohangda marhumdir. Otlarning chopishida,qilichlarning shaqillashida, botirlarning qichqirishida bo'lg'on haybatli ohangni bu vaznda sig'dirmoq mumkin emas. Aruzda "jangnoma"larga maxsus, ishlangan tayyor vazn "mutaqoribi musammani maqsur" vaznidir. Fors adabiyotida Rudakiydan boshlab Unsuriy, Firdavsiy, Nizomiy kabi bir ko'p shoirlar jangnomalarini shu vaznda yozadilar. Bizning adabiyotda ham, masalan Navoiyning "Iskandarnoma" sida, bu vazn urush maydonlarig'a munosib bir  ohang beradir ".

Rus shoiri V.Xlebnikovning:

"….Времыши, камыши,
На озера берега
Священно шумящие " ,

degan misralaridagi denotat tabiatga mos ohang "ш" tovushi evaziga paydo bo'lgandek taassurot qoldiradi.

Lirik asarlarda ohang badiiy san'atlar, qofiya, ritm, hijo, turoq, radif va boshqa turli unsurlar vositasida maydonga keladi.

Epik asar ritmini aniqlash ancha mushkul. Ammo qadim adabiyotda nasr saj yo'li bilan yozilgani ma'lum. Shuningdek, nasriy asar ohangi tadqiqida bevosita tovushlar, so'zlar, so'z birikmalari, takroriy, juft va antonim so'zlar, gap hamda bir necha jumlalar takroriga diqqat qaratish lozim bo'ladi.

Tovushlar artikulyatsion o'rniga ko'ra o'pkadan kelayotgan havo har xil to'siqlarga uchrab, til va lab ishtirokida og'iz bo'shlig'ining turli nuqtalarida paydo

bo‘ladi. Tovushlar qattiq, yumshoq, nafis, qo‘pol va boshqa xususiyatlarga ega.”O” unlisida kenglik, ulug‘vorlik, bepayonlik, “i” da nazokat, ingichkalik borga o‘xshaydi. Undosh tovushlarda ham his qilinishi lozim bo‘lgan xususiyatlar mavjud. Albatta, har bir tovushning tabiatida mazmunga hos nimadir yashirin bo‘ladi.

Tovushlarning boshqa bir xususiyati, ya’ni ramziy ma’noda “rangi” ham bo‘ladi. Fransuz shoiri Jan-Artur Rembo “Unlilar” she’rida yozadi:

“А-черный; белый-Е; И-красный; У-зеленый; О-синий; тайну их скажу я в свой черед…”.

Badiiy asarni anglash, tushunish, tabiiyki,tilga ham bog‘liqdir. Yozuvchilarning ba’zida tinish belgilarini qo‘llamasdan, sahifalarga cho‘zilgan uzundan- uzun gap tuzilishlarida ham qandaydir “til siyosati” borga o‘xshaydi. Go‘yo tilning cheksiz imkoniyatini o‘sha tarzdagi bayonlar namoyon qilar ekan. Ikkinchi tomondan, bundagi bayon usulini insonning ko‘ngli holati, ong ostidagi ongsizlik jarayonlari, ruhiy kechinmalari bilan bog‘liq izohlashlar ham bor. Ehtimol, badiiy nutq va uslubdagi bunday “o‘yinlar”dan inson fikrlashi, tafakkuri “zo‘riqib”, odam va olamni teranroq anglashi ham mumkindir.

Dunyo adabiyotidagi J.Joys kabi ayrim yozuvchilarning asarlari tilida bir nechta sahifalarga cho‘zilgan gaplarni uchratish mumkin. O‘zbek adabiyotida N.Eshonqul asarlari tilida ham shunday tajribalar, poetik tafakkur va tasvirning uzluksiz tarzi kuzatiladi. Adib bir qissasida yozadi: “Hosilaga o‘sha kuni nima uchun unga – barcha yaramas odamlar kabi u ham o‘sha paytlarda olifta, sho‘x shaddod va shakarguftorlikning hamma ko‘chasida bir-bir o‘tib chiqqan, gaplashganda og‘izdan qizil bog‘ichsimon va’dalar bog‘langan dasta-dasta gullar to‘qiladigan xushtakalluf yigit edi-bo‘lajak kuyoviga tarsaki tushirganimni tushuntirib beraman deb,barcha voqeani yana ham chalkashtirib yuborgandim: o‘rtadagi munosabatlarimizga va tanish bilishlarimiz qiziqib o‘qishgan, biroq o‘zimiz uchun qizig‘i bo‘lmagan bizning chigal va mojarobop qissamizga ,-garchi biz keyinchalik ham bir-birimizdan ko‘zlarimizdagi nafrat va ta’nani yashirib, nomigagina uchrashib yurgan bo‘lsak ham – o‘sha uchrashuv so‘nggi nuqta

qo‘ygan, ma’lum manzilgacha birga kelib,so‘ng ikkovi ikki yo‘ldan ketgan ikki yo‘lovchidek biz ham birgalikda bosishimiz zarur bo‘lgan manzilni bosib o‘tgan va o‘sha kundan boshlab,buni ochiq e’tirof etgimiz kelmasa-da, mutlaqo qarama-qarshi tomonlarga – u o‘zi orzu qilgan baxt o‘lkasi tomon, men esa o‘zim ham bilmagan holda mana shu tun panjarasiga qarab yo‘l olgan, hayot yo mamot jangiga kirgan qadam massagetlar malikasi yanglig‘ yuzi va avzoyiga har qanday o‘tinch-u iltijolar o‘tmaydigan sovut kiyib olgan Hosila o‘sha kuni xonasiga va ko‘zlariga tishlarini qayrab yotgan nafrat ajdahosini bog‘lab qo‘ygan edi: uni ko‘rgan kundan chirqillab sayray boshlagan va unga tomon besaru-poy uchib jo‘nagan, biroq manzillariga yetmay daydi va Hosilaning iltifotsiz ko‘zlaridan otilgan o‘qlardan bir-bir halok bo‘lgan ko‘nglim qushlarining qalashib yotgan murdalari bilan liq to‘lgan ko‘ksimdagi besarishta xonaga esa o‘zi ketgandan so‘ng ham qalbimni pora-pora qilish, uni eslagan onim ko‘krak qafaslarimni yorib tashlash uchun quturib ketib, hamma narsani sindirib, parchalab tashlaydigan yarador bir sherni –behudud va hech qachon javob topilmaydigan savollarni bog‘lab ketgan edi ” (N.Eshonqul.Maymun yetaklagan odam.-T.”Yangi asr avlodi”.2004.16-17-bet). Jumla ikki yuz ellik bir so‘zdan, bir qancha tinish belgilaridan tarkib topgan. Bu murakkab qo‘shma gapni anglash, tushunib yetish ham ancha murakkab.

Haddan tashqari qo‘shimchalar qo‘shib yasalgan uzun so‘zda suniylik bo‘ladi: “Gof+krigs+vust+shnaps+rat”-“pridvorniy voenno-kolbasno-vodochniy sovet”. Bir tilshunos nemis tilida klub peshtoqiga shunday hazilnamo yozuv yozilganligini qayd etadi: “Sentralvisseshaftlixgeleertermenshenlebensbedingungenferbesserungsaussshusstr effpunktklasse”. Bu nemischa qo‘shma so‘z tahminan “Olimlar hayotini yaxshilash bo‘yicha komissiya xonasi” ma’nosini anglatadi. Bunday so‘z qurilishi va yasalishida suniylik mavjud.

Ulkan adiblar odatda tushunarli yozishni, sodda ifoda ortidan keladigan ulug‘vorlikni e’tirof etishgan. Lev Tolstoy bor xatida:”…Agar men podsho bo‘lganimda o‘zi ishlatgan so‘zning ma’nosini tushuntirib bera olmaydigan

yozuvchini yozish huquqidan mahrum qilar va yuz darra bilan kaltaklash haqida buyruq chiqargan bo‘lardim…”, deb yozgan ekan. Abdulla Qodiriy esa qalam ahliga qarata: “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozuvchilik, aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdadir ” , degan muhim bir o‘gitni aytadi.

Umuman olganda, badiiy asar tili turli nuqtai nazardan o‘rganilayotgan va yangicha yondashuvlar asosida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos serqirra obyekt sanaladi.

**Nazorat savollari:**

1. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asar tili qaysi yo‘nalishlarda o‘rganiladi?
2. Til va nutq hodisasini farqlab bering.
3. Stilistik maydon tushunchasi nima?
4. Nasriy asarda ritm qanday paydo bo‘ladi?
5. O‘zbek adabiyotshunosligida qaysi olimlar ijodida lingvistik tadqiqot usuli uchraydi?

**Adabiyotlar:**


1. Барт Р.Избранные работы. Семиотика. Поэтика. -М.,1989.
2. Вадуд Маҳмуд. Танланган асарлар. - Т.: Маънавият, 2007.
3. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. - М.: Издательство академии наук, 1963.
4. Гришман М.М. Ритм художественной прозы. - М., 1982.
5. Еремина Л.И. О языке художественной прозы Н.В.Гоголя. –М.: Наука,1987.
6. Карим Б. Насрдаги назокат // Ўзбек адабий танқиди. ХХ аср адабиётшунослиги. Антология . – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
7. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритм табиати. – Бухоро, 2002.
8. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007.
9. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Т.: Чўлпон, 2002.

10. Улуғов А. Инсон ибратга интилади. – Т.: Ўзбекистон, 2007.
11. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Т.: Фан,1973.
12. Қодиров П. Тил ва эл. – Т.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2005.

## SEMINAR MASHG`ULOTLARI

### 1- seminar mavzusi: Adabiyotshunoslik metodologiyasining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va falsafiy dunyoqarash

**Reja:**

1. Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot tarixi.
2. Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik metodologiyasi.
3. Falsafiy dunyoqarash haqida.
4. Ilmiy bilishning umumiy usullari.

**Topshiriqlar:**

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot tarixining o`zaro aloqasiga izoh bering va va shu bo`yicha kontseptual jadval tuzing.

**2-topshiriq:** Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot tarixi munosabatlarini "Yelpig`ich" texnologiyasi yordamida yoritib bering.

**3-topshiriq:** "Birgalikda o'qiymiz" texnologiyasidan foydalanib, falsafiy dunyoqarash masalasini tahlil qiling.

**4-topshiriq:** Ilmiy bilishning umumiy usullarini "Klaster" jadvaliga joylang va izohlang.

**Adabiyotlar:**


1. Ёқубов И. Илмий тадқиқот асослари. –Урганч, 1995.
2. Илмий фаолиятга тайёргарлик. Ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2010.
3. Рахматуллаев Ш. Илмий иш олиб бориш асослари. – Т.: Фан, 1988.
4. Солиев С. Илмий тадқиқот асослари. – Т., 2003.
5. Артамонов С. и др. Научное творчество студентов. – М.: Молодая гвардия, 1984.


**Elektron manbalar:**


1. www.ziyonet.uz.

2. www. kutubxona.uz.

**2- seminar mavzusi: Adabiyotshunoslik metodologiyasi va mantiqiy xulosa chiqarish usullari**

**Reja:**

1. Mantiqiy xulosa chiqarish va uning usullari.
2. Xulosa chiqarish nazariyasining yaratilishi.
3. Asoslarning soniga va xulosaning chinlik darajasiga ko`ra xulosa chiqarish.
4. Fikrning harakat yo`nalishiga ko`ra xulosa chiqarish.

**Topshiriqlar:**

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Mantiqiy xulosa chiqarish va uning usullari masalasini tushuntiring.

**2-topshiriq:** Xulosa chiqarish nazariyasining yaratilishi haqida nimalarni bilasiz?

**3-topshiriq:** Asoslarning soniga va xulosaning chinlik darajasiga ko`ra xulosa chiqarish turlarini Venn diagrammasi va Baliq skleti metodlari orqali bayon qiling.

**4-topshiriq:** Fikrning harakat yo`nalishiga ko`ra xulosa chiqarish turini izohlang.

**Adabiyotlar:**


1. Ёқубов И. Илмий тадқиқот асослари. –Урганч, 1995.
2. Илмий фаолиятга тайёргарлик. Ўқув-услубий қўлланма. – Т., 2010.
3. Рахматуллаев Ш. Илмий иш олиб бориш асослари. – Т.: Фан, 1988.
4. Солиев С. Илмий тадқиқот асослари. – Т., 2003.
5. Артамонов С. и др. Научное творчество студентов. – М.: Молодая гвардия, 1984.


**Elektron manbalar:**

3. www.ziyonet.uz.

4. www. kutubxona.uz.

### 3- seminar mavzusi: Struktural-analiz metodi va o‘zbek adabiyotshunosligi

**Reja:**

1. Badiiy asarni yaxlit “tirik organizm” sifatida o`rganish – struktural metodning bosh prinsipi.
2. Klod Levi-Stross faoliyati.
3. R.Bartning ijod mohiyati xususidagi fikrlari.

**Topshiriqlar:**

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Struktural metodning o`ziga xos jihatlari va asosiy prinsiplarini izohlab, “Pinbord” texnologiyasi yordamida tasniflab bering.

**2-topshiriq:** Klod Levi-Stross va R.Bartning ijod mohiyati xususidagi fikrlarini izohlang.

**3-topshiriq:** R.Bartning ijod mohiyati xususidagi fikrlariga munosabat bildiring.

**Adabiyotlar:**


1. Барт Р. Избранные работы. – М., 1989.
2. Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М., 1986.
3. Дўстхўжаева Н. Сеҳрли эртакларнинг структурал таҳлили // ТошДУ хабарлари. 1999. 1-сон.
4. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
5. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
6. Лотман Ю. Анализ поэтического текста. – Л., 1972.
7. Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003.
8. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004.


### 4- seminar mavzusi: Yozuvchi ruhiy olami va ijodiy laboratoriyasi

**Reja:**

1. Yozuvchining ijodiy labaratoriyasi haqida.

2. Badiiy asarni yaratishdan oldingi jarayon.
3. Adabiy asar yaratilayotgan jarayon.
4. Yozuvchining dunyoqarashi, g`oyasi.

## Topshiriqlar:

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Yozuvchining ijodiy labaratoriyasi haqidagi fikrlaringizni "5 daqiqalik esse" metodi asosida tushuntirib bering.

**2-topshiriq:** Yozuvchida badiiy asarni yaratishdan oldingi jarayonda qanday holatlar kuzatiladi? Fikrlaringizni og`zaki bayon qiling.

**3-topshiriq:** Adabiy asar yaratilayotgan jarayonda yozuvchi, ijodkor ruhiyati masalasini tahlil qiling.

**4-topshiriq:** Yozuvchining dunyoqarashi va g`oyasi ijod jarayonida qanchalik ahamiyatga ega, deb o`ylaysiz?

## Adabiyotlar:


1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
4. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.


## 5- seminar mavzusi: Psixoanalitik metodning o'ziga xosligi

## Reja:

1. Psixologik metodning rivojlanish tarixi va o`ziga xos xususiyatlari.
2. Psixologik metod va retsepsiya.
3. Psixoanaliz – murakkablashgan psixologik metod.
4. O`zbek adabiyotida ruhiy tahlil masalasi.

## Topshiriqlar:

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Psixologik metodning rivojlanish tarixi va o`ziga xos xususiyatlarini "Klaster" asosida tushuntiring.

**2-topshiriq:** "Ikki qismli kundalik" metodi yordamida psixologik metod va retsepsiya jarayonini tahlil qiling.

**3-topshiriq:** O`zbek adabiyotida ruhiy tahlil masalasini kimlar o`rgangan?

## Adabiyotlar:


1. Алимуҳаммедов А. А.Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // ХХ аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
2. Выготский Л. Психология искусства. – М., 1968.
3. Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари // ХХ аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
4. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989.
5. Фром Э. Душа человека. – М.,1992.
6. Хосе Ортега-и-Гассет. Дегуманизация исскуства. – М., 1991.
7. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011.


## 6- seminar mavzusi: Adabiyotshunoslikda ruhiy tahlil tamoyillari

### Reja:

1. Ruhiy tahlil tamoyillari.
2. Ijodkor ruhiyati va ijod jarayoni.
3. Badiiy asarda qahramon ruhiyati ifodasi.

### Topshiriqlar:

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Ruhiy tahlil tamoyillari masalasini og`zaki tahlil qiling. Fikrlaringizni konkret asarlar misolida tushuntiring.

**2-topshiriq:** Ijod jarayonida ijodkor ruhiyati va uni yuzaga chiqaruvchi omillar haqidagi fikrlaringizni Klaster orqali tushuntiring.

**3-topshiriq:** Badiiy asarda qahramon ruhiyati ifodasi qay yo`sinda ifoda etiladi? Dramatik asarlar asosida fikringizni bayon eting.

**Adabiyotlar:**


1. Алимуҳаммедов А. А.Қаҳҳор ҳикояларида психологик тасвир // XX аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
2. Выготский Л. Психология искусства. – М., 1968.
3. Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари // XX аср адабиётшунослиги. Антология. – Т.: Турон-Иқбол, 2011.
4. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989.
5. Фром Э. Душа человека. – М.,1992.
6. Хосе Ортега-и-Гассет. Дегуманизация исскуства. – М., 1991.
7. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. – Т.: Фан, 2011.


## 7- seminar mavzusi: Germenevtikaning metodologik imkoniyati

**Reja:**

1. Germenevtika istilohining ma`no-mohiyati.
2. Badiiy matnning germenevtik tahlili.
3. Olimlarning germenevtika haqidagi qarashlari.

**Topshiriqlar:**

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Baliq skleti metodi asosida germenevtika istilohining ma`no-mohiyatini asoslang.

**2-topshiriq:** Badiiy matnning germenevtik tahlili masalasini Ikki qismli kundalik metodi orqali bayon eting.

**3-topshiriq:** Olimlarning germenevtika haqidagi qarashlariga to`xtaling.

**Adabiyotlar:**

1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.

2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.

3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.

4. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.

5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.

## 8-mavzu: Sharq adabiyotshunosligiga xos tahlil yo`llari

**Reja:**

1. Sharq germenevtikasi.
2. Qur`on tafsirlari va germenevtika.
3. Ilmi sharh va uning xususiyatlari.

**Topshiriqlar:**

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Sharq va G`arb germenevtikasi xususiyatlarini Venn diagrammasi orqali ochib bering.

**2-topshiriq:** Qur`on tafsirlari va germenevtika munosabatlarini tahlil qiling.

**3-topshiriq:** Ilmi sharh va uning xususiyatlarini Baliq skleti metodi orqali izohlang.

**Adabiyotlar:**

1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.

2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.

3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.

4. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.

5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.

## 9- seminar mavzusi: O`zbek adabiyotshunosligida estetik tahlil masalasi

### Reja:

1. O`zbek adabiyotshunoslarining estetik tahlil to`g`risidagi qarashlari.
2. O. Sharafiddinov, M. Qo`shjonov faoliyati.

### Topshiriqlar:

Talabalarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

**1-topshiriq:** Rus adabiyotshunoslarining estetik tahlil borasidagi fikrlariga izoh bering (Venn diagrammasi asosida).

**2-topshiriq:** O`zbek adabiyotshunoslari-ning estetik tahlil borasidagi fikrlariga izoh bering (Klaster asosida).

### Adabiyotlar:


1. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. – Т.: Маънавият, 2010.
2. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Т.: Фан, 2006.
3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Т.: Муҳаррир, 2011.
4. Maren-Griresebach. Methoden der Literaturwissenschaft. Stuttgart, 1992.
5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Т.: Фан, 2006.

## FAN BO`YICHA MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARI

| № | Mavzu nomi | Soat | Bajariladigan ish | Hisobot shakli |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Formal va struktural metodlarni qiyoslash | 2 | Formal va struktural metodlarni qiyoslanadi. | Referat |
| 2. | Yozuvchi uslubi va matn ritmikasi. | 2 | Yozuvchi uslubi va matn ritmikasi masalasini o`rganish. | Referat |
| 3. | O`zbek adabiyotshunos-ligida biografik metod masalasi. | 2 | O`zbek adabiyotshunoslarining biografik metod bo`yicha qarashlarini o`rganish. | Referat |
| 4. | R.Bart, G.Gadamer, Yu.Lotman asarlarini o`qish. | 4 | R.Bart, G.Gadamer, Yu.Lotman asarlari tahlil etiladi. | Referat |
| 5. | Sh. Sent-Byov, A.Morua asarlarini o`qish. | 2 | Sh. Sent-Byov, A.Morua asarlari o`qib, tahlil etildi. | Referat |
| 6. | V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, M.Baxtin va Yu.Borev asarlarini o`qish. | 4 | V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, M.Baxtin va Yu.Borev asarlari o`qib, o`rganiladi. | Referat |
| 7. | V.G.Belinskiy ilmiy faoliyati. | 4 | V.G.Belinskiy ilmiy-tanqidiy asarlari o`rganiladi. | Referat |
| 8. | Rus adabiyotshunoslari ilmiy asarlarini o`qish. | 4 | Rus adabiyotshunoslari ilmiy asarlari o`qib, o`rganiladi. | Referat |
| 9. | O`zbek adabiyotshunos olimlarining asarlarini o`qish. | 4 | O.Sharafiddinov, M.Qo`shjonov, B.Qosimov, U.Normatov, N.Karimov, A.Rasulovlarning ning ilmiy asarlari o`rganiladi. | Referat |
| | **Jami:** | **28 soat** | | |

# FAN BO‘YICHA GLOSSARIY

| Atamaning o`zbekcha nomi | Atamaning ruscha nomi | Atamaning inglizcha nomi | Atamaning izohi |
|---|---|---|---|
| **Analiz** | Анализ | Analysis | grek. analysis-«ajratish». Butunni tarkibiy qismga fikran yoki amaliy ajratish. |
| **Analogiya** | Аналогия | Analogy | grek. analogiya «muvofiqlik», «o`xshash-lik» aynan bir xil bo`lmagan obyektlar o`rtasidagi ba’zi tomonlar, sifatlar va munosabat-lardagi o`xshashlikni aniqlash. |
| **Arxetip** | Архетип | Archetype | K.Yung nazarida motivlar va ularning kombinat-siyalar, umumiy-qat’iy psixologik sxemalar (figuralar), urf-odat, miflar, simvolika, ishonch, psixik faoliyat (tush ko`rish), shuningdek, ijodiy jarayon mohiyatida ongsiz ravishda zohir bo`ladigan holatlardir. |
| **Aqliy hujum** | Умственная атака | Mental attack | (brainstorming) - guruhda innovatsion (yangi) ijodiy g’oyalarni to’plashning instruktor yoki moderator tomonidan boshqarib (yo’naltirib) boriladigan jarayoni. G’oyalarni ijodiy to’plashning guruhiy usuli. Mazkur usulining yuqori samara-dorligini ta’minlovchi asosiy omil - bildiriladigan fikrlarni har qanday tanqid qilishning taqiqlanishi. Tizimlanmagan munozara |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | yordamida muammoni guruhda echishdagi ijodiylik (kreativlik)ni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnika. Ishtirokchilar o’z fikrlarini erkin, tanqid qilmasdan ifoda etishga chaqiriladi. G’oyalar tahlili keyinroq o’tkaziladi. Bu usuldan foydalanganda muammoni echish variantlari maksimal darajada ortadi. |
| **Biografik metod** | Биографический метод | Biographical method | yozuvchi va badiiy asar juftligi ustida ko`proq ish ko`radi. Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga impuls bergan ilhom faktorlariga, ijodkor labaratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e’tibor beradi. |
| **Germenevtika** | Герменевтика | Hermeneutics | grekcha «hermeneukos» so`zidan olingan bo`lib, «tushuntiruvchi», «talqin etuvchi» ma’nosini beradi. Germenevtika talqinchiga matnni talqin etishning nazariy-metodologik usul-larini ko`rsatadi. Badiiy matndagi qahramonlarni talqin etuvchi o`z shaxsiyati bilan taqqoslaydi – identifikat-siyadan keng foydalanadi. Germenevtik doira vosita-sida matnning «ichiga kirishi» mumkin bo`ladi. |
| **Gnoseologiya** | Гносеология | Epistemology | (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o’rganish) – bilish, ilmiy bilimlarning |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo’lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta’limot. |
| **Deduksiya** | Дедукция | Deduction | lat. Deductio- «xulosa chiqarish», bir yoki bir necha asoslarga ko`ra xulosa chiqariladi. |
| **Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar** | Методы развития социального разума | Mental development methods | O’quvchilarda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg’usi va irodasiga ta’sir ko’rsatish usullari. |
| **Ilmiy dunyoqarash** | Научный взгляд | Scientific view | uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o’zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqaror-lashgan dunyoqarash shakli. |
| **Ilmiy tafakkur** | Научное мышление | Scientific thinking | inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv. |
| **Ilmiy qarash** | Научный взгляд | Scientific view | (yunoncha «idea» - g’oya, tasavvur, tushunchalar yig’indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g’oya. |
| **Innovatsiya** | Инновация | Innovation | o’qituvchi va o’quvchi-larning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda, ta’lim - tarbiya berish shakllari, metodlari, yangi maqsad va mazmunni joriy etish. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Induksiya** | Индукция | Induction | lat. Inductio «ayrimalikdan umumiylik-ka», xulosa chiqarish tiplaridan biri. |
| **Formal metod** | Формальный метод | Formal method | 20-yillar rus adabiyot-shunosligida maktab holiga kelgan-«formal maktab» nomini olgan yo`nalish rus formal metodining bir ko`rinishi edi. Bu yo`nalish tarkibiga OPOYAZ (Obshestvo izucheniya poeticheskogo yazika), MLK (Moskovskiy lingvisti-cheskiy krujok) kabi jamiiyat va to`garaklar kirar edi. Adabiyotshu-noslikdagi formal metod badiiy shaklga eng muhim nazariy-estetik kategoriya deb qaraydi. Badiiy adabiyotning eng asosiy xususiyati shaklda o`z ifodasini topadi, degan g`oyani ilgari suradi. |
| **Metod** | Метод | Method | grekcha **«meta»-**keyin, so`ng, **«hodos»-**yo`l degan ikki so`z birikmasidan vujudga kelgan. Shunday qilib grekcha «methodos» degan qo`shma so`zning lug`aviy ma’nosi «biron narsaga borish yo`li» demakdir. Istilohiy jihatdan esa mazkur so`z-atama «eng umumiy ma’noda maqsadga erishish usuli, muayyan tarzda tartibga solingan faoliyat» degan ma’noni bildiradi. ***Metod*** – bilish vositasi, o`rganila-yotgan obyektni tafak- |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | kurda qayta hosil qilish usulidir. Metod muayyan fan sohasining nazariyasi bilan, falsafadagi «bilish», «ilmiy bilish» tushunchalari bilan chambarchas bog`liqdir. |
| **Metodologiya** | Методология | Methodology | 1) biron fanga tatbiq etiladigan tadqiqot usulining majmui; 2) ilmiy bilish va dunyoni o`zgartish metodi haqidagi fan. |
| **Psixologik metod** | Психологический метод | Psychological method | ijodning psixologik jihatlariga, eng muhimi-avtorning ruhiy-ma'naviy dunyosiga asosiy e'tiborni qaratdi. Shu bilan birga badiiy asarni o`quvchining ruhiy olami ham bu yo`nalish tadqiqotchilari uchun muhimdir. Chunki badiiy asarni o`zlashtirish ham bevosita insonning ma'naviy-ruhiy dunyosiga tegishli masaladir. Zero, san'at eng avvalo inson o`zligining, ma'naviy-ruhiy olamining tashqi faktorlari in'ikosining hosilasidir. |
| **Sintez** | Синтез | Synthesis | grek. synthesis - «birlashtirish». Qismlarni qayta birlashtirish. |
| **Struktural metod** | Структуральный метод | Structural method | metodning maqsadi tarixiy va zamonaviy madaniyat negizidagi fikrlash strukturasini tushuntirish va tavsiflash hamda ko`rsatishdir. Struktural analizda matndagi badiiy unsurlarning munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Matnning muayyan shaklini chizgilar asosida ifoda ham qilinadi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Struktural poetika** | Структуральная поэтика | Structural poetics | matndagi barcha element-larni bir butunlikda ko`radi, ularning o`zaro aloqasini o`rganadi. Struk-tural poetikaning asosiy usuli-metodologiyasi badiiy asarni immanent analiz qilishdir. Struktural metod asosida badiiy asar o`rganilar ekan, uning yozilgan muhiti-davri, yozuvchining biografiyasi kabi masalalarga diqqat qaratilmaydi. Tadqiqotchi muayyan matn doirasi bilan cheklanadi va toza «ichki analiz» bilan shug`ullanadi. |
| **Sotsiologik metod** | Социологический метод | Sociological method | adabiyotshunoslikda juda keng qo`llanadigan ilmiy tadqiqot usullaridan biridir. Sotsiologik metod negizida adabiyotni ijtimoiy-sotsial voqelikka bog`liq holda o`rganish prinsiplari yotadi. Adabiyotni bu metod vositasida tadqiq etishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar bilan bog`lanish hollari etakchi o`rinda turadi. |
| **Vulgar sotsiologizm** | Вульгарный социологизм | Vulgar sociologism | ijtimoiy hodisalarni siyqa talqin qilishdan iborat bo`lib, bunday talqin qilish tarixiy materialzmni buzadi, chunki bu ijtimoiy taraqqiyotning ayrim faktorlarini; texnikani, ishlab chiqarishni tashkil etish formalarini, ekono-mikani, siyosatni, ideolo-giyani bir tomonlama bo`rttirib ko`rsatadi. |

# ILOVALAR

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

| **"TASDIQLAYMAN"** | **"KELISHILDI"** |
|---|---|
| Rektor ________ Sh.Sirojiddinov | Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi |
| 2020 yil "28" 08 | 2020 yil "29" 08 |
| | Ro'yxatga olindi: № MD-5A120101 |
| | 2020 yil "29" 08 |

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA ILMIY-TADQIQOT METODOLOGIYASI

## FAN DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 | – Gumanitar soha |
| **Ta'lim sohasi:** | 120000 | – Gumanitar fanlar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 5A120101 | – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti) |

**TOSHKENT – 2020**

1

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul kodi AITMM1003 | | O'quv yili 2020-2021 | Semestr 1 | ECTS - Kreditlar 3 | |
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 2 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 30 | | 60 | 90 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – badiiy asarni nazariy tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyatilarini misollar asosida o'rganish, umuman, adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi.

Fanning vazifasi - "Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasi" fanining vazifasi, magistrlarga ilmiy-tadqiqot turlari, ilmiy-tadqiqot tarkibi, ilmiy tadqiqot tarixi, metodlar va metodologiya masalalarini, adabiyotshunoslik metodlarining tarixi, metodlar asoschilari va asosiy ilmiy tamoyillari, adabiyotshunoslik metodlari bilan ijodiy metodning farqini va boshqa ilmiy-adabiy, tadqiqiy-metodologik masalalarni o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot turlari**

